

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

SUVONOVA XANIFA

**O'QUVCHILARDA MILLIY ONG VA MILLIY MAFKURANI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

«5310200-Psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Prof. B.Umarov

Bitiruv malakaviy ishi «Psixologiya» kafedrasining 2014 yil 30-maydagi
yig`ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10
)

Kafedra mudiri:

p.f.n. dots. A. I. Saidov

BMI YADAKning 2014 yil _____iyundagi majlisida muhokama qilindi
va _____ ballga baholandi (bayonnoma №____)

YADAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand-2014

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari.

Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov

Kotib: V. Axrorov

KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedrasida 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi

2013-2014 o'quv yilida Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Suvonova Xanifaning «O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: prof. B.Umarov ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'zni Suvonova Xanifaga bersak. U malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirdi.

Suvonova Xanifa malakaviy bitiruv ishining mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar dots. A.Saidov, o'qituvchilar Axrorov V va Isakova G savollar berishdi. Savollarga Suvonova Xanifa ijobiy javob berdi.

Suvonova Xanifaning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Suvonova Xanifaning «O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Suvonova Xanifaning ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamDChTI Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri ps.f.n. dots. E.Iskandarov taqrizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi: _____ **p.f.n. A.Saidov**

Kotib: _____ **V. Axrorov**

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Suvonova Xanifaning «O`quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma'noda, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlariga ega muayyan tarixiy zarurat mujassami bo'lgan nazariya hamdir. U aynan nazariya sifatida ijtimoiy vokelikning ifodasi tarzida namoyon bo'ladi, o'ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlariga ega bo'lgan umummilliy hodisa hisoblanadi. Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. Shu ma'noda u 130 dan ziyod millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston halqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir. Jahon hamjamiyatining mustaqil a'zosi va tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni, milliy davlatchilik an'analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarimizda yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va halq farovonligi ishiga safarbar etish bu g'oyaning asosiy maqsad va vazifasidir.

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol mafkurasi halqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni O'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday

tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Shunday qilib, milliy ong va milliy mafkurani o'rganish orqali o'quvchilar qalbiga milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarni singdirish uchun g'oyaviy chiniqtirishning ayrim ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Suvonova Xanifa tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: Milliy ong va milliy mafkurani shakllantirish dolzarb ijtimoiy muammo sifatida deb nomlangan bo'lib, milliy mafkura muammosining ilmiy-uslubiy adabiyotlarda yoritilganligi va milliy ong va milliy mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ilmiy nazariy shlar o'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida Muammoning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari bo'lib, bunda talaba mavzuga oid metodikalar jumladan shaxs yo'nalganligi diagnostikasi va uning tahlilini, qadriyatlar yo'nalishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tilda bayon qilgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Suvonova Xanifaning mazkur malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

professor B.Umarov

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Suvonova Xanifaning «O`quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ma'lumki, har qanday millat va halq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad-muddalari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Xo'sh, mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun halqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi.

Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. Shu ma'noda u 130 dan ziyod millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston halqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir. Jahon hamjamiyatining mustaqil a'zosi va tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni, milliy davlatchilik an'analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarimizda yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va halq farovonligi ishiga safarbar etish bu g'oyaning asosiy maqsad va vazifasidir.

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol mafkurasi halqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni O'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Suvonova Xanifa tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: Milliy ong va milliy mafkurani shakllantirish dolzarb ijtimoiy muammo sifatida deb nomlangan bo'lib, milliy mafkura muammosining ilmiy-uslubiy adabiyotlarda yoritilganligi va milliy ong va milliy mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ilmiy nazariy shlar

o'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida Muammoning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari bo'lib, bunda talaba mavzuga oid metodikalar jumladan shaxs yo'nalganligi diagnostikasi va uning tahlilini, qadriyatlar yo'nalishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tilda bayon qilgan.

Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

SamDChTI Pedagogika va psixologiya
kafedrası mudiri

ps.f.n.dots. E.Iskandarov

МУНДАРИЖА

I-БОБ. МИЛЛИЙ ОНГ ВА МИЛЛИЙ МАФКУРАНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ ИЖТИМОИЙ МУАММО СИФАТИДА.

1.1. Миллий мафкура муаммосининг илмий-услубий адабиётларда ёритилиши.

1.2. Миллий онг ва миллий мафкуравий иммунитетни шакллантириш бўйича илмий-назарий ишлар.

1.3. Ўқувчиларда миллий онг ва миллий мафкурани шакллантиришнинг психологик хусусиятлари.

II- БОБ. МУАММОНИНГ ҚЎЙИЛИШИ ВА ТАДҚИҚОД ВАЗИФАЛАРИ.

2.1. Шахс йўналганлиги диагностикаси ва унинг таҳлили.

2.2. Қадриятлар йўналишининг ижтимоий - психологик хусусиятлари.

2.3. Натижа ва таҳлиллар.

ХУЛОСА.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma'noda, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlariga ega muayyan tarixiy zarurat mujassami bo'lgan nazariya hamdir. U aynan nazariya sifatida ijtimoiy vokelikning ifodasi tarzida namoyon bo'ladi, o'ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlariga ega bo'lgan umummilliy hodisa hisoblanadi. Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. Shu ma'noda u 130 dan ziyod millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston halqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir. Jahon hamjamiyatining mustaqil a'zosi va tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni, milliy davlatchilik an'analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarimizda yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va halq farovonligi ishiga safarbar etish bu g'oyaning asosiy maqsad va vazifasidir.

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'lga kirgan milliy istiqlol mafkurasi halqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni O'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi asarlarida hamda ko'plab ma'ruza va nutqlarida O'zbekiston halqi qanday maqsad sari intilayotgani, qanday jamiyat barpo etgani ilmiy asosda keng va atroflicha yoritib berilgan. Ayniqsa, Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarlarida mustaqil taraqqiyot yillarida orttirilgan tajribalarga tayangan holda, sobiq sovet tuzumining og'ir asoratlariga qaramay, yurtimiz katta rivojlanish yo'li, O'zbekiston yangi asrga qanday rejalar bilan kirib borayotgani asoslanadi. Yurtimizda ma'no-mohiyatiga ko'ra butunlay yangi jamiyat barpo etish va XXI asrning dastlabki yillariga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Shu bois halqimiz irodasi bilan tanlab olingan va o'zimizga mos rivojlanish bu - ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashsiz, tadrijiy tarzda olga borishni taqozo etadigan yo'ldir. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu yo'lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo'lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini qat'iy belgilab olib, asosiy kuch va imkoniyatlarni bir joyga to'plab, avvalo ana shu ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taraqqiyotni ta'minlash, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali bozor munosabatlariga asoslangan demokratik odil jamiyat barpo etish O'zbekiston tanlagan yo'lning ma'no-mazmunini tashkil etadi. Tanlab olingan bu yo'l, hamda unga xos milliy istiqlol g'oyasining strategik maqsadlari jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan psixologiyaga daxldor bo'lgan qator dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shunday o'ta dolzarb hayotiy vazifalardan biri - barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Bu borada pedagog-psixologlarga, qolaversa, jamiyatning har-bir a'zosiga katta masu'liyat yuklatiladi. Zero, ta'lim –tarbiya bu faqatgina ota-ona yoki murabbiylar ishi emas, balkim o'z kelajagiga befarq bo'lmagan, buyuk maqsadlar sari intilayotgan bunyodkor insonlar ishidir.

Ma'lumki, XXI - asr bu axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Ya'ni, yoshlarimiz xududiy hamda mazmun jihatidan cheklanmagan axborotdan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Ammo umuminsoniy qadriyatlarga da'vat etuvchi, taraqqiyotga undovchi ma'lumotlar bilan birgalikda hayotimizga tajovuzkor, g'arazli hamda vayronkor g'oyalar kirib kelishi ehtimoli doimo saqlanib qoladi. Shunday vaziyatda yoshlar qalbi va ongini buzg'unchi g'oya va mafkuralardan asrash, yaxshilik va yomonlikni farqlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xaqiqatdan ham, dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqyealar kishining psixologik imnoniyatlariga ko'prok e'tibor berishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimini takomillashtirish - jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xamma davlatlarda va hamma zamonlarda ham ijtimoiy faktorlar, jumladan, g'oyaviy tamoyillar jamiyat a'zolariga ruhiy oziq, ma'naviy madad bo'lishga da'vat etgan. Bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati haqida chuqur tasavvurlar shakllantirilsa, o'quvchilar ongi, tarbiyasida, ularning dunyoqarashi va turmush tarzida jiddiy ijobiy o'zgarishlar yasashi mumkin.

Qolaversa, milliy istiqlol g'oyasi jamiyatning ma'naviy-psixologik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'naviyat va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish muhim ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, milliy istiqlol g'oyasini o'rganish orqali o'quvchilar qalbiga milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarini singdirish uchun g'oyaviy chiniqtirishning ayrim ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiqod predmeti sifatida o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb

muammolardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda O'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish ilmiy ishning maqsadi sifatida belgilandi.

O'quvchilarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiqod predmeti sifatida ilk bor o'rganilishi, mafkuraviy immunitetni talqin qilishning ayrim ijtimoiy-psixologik mezonlarini ishlab chiqilishi bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligini tashkil etdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari muammosi bo'yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sosiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasixev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar) o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma'lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotov A.M.Jabborovlar, M.Bekmurodovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham milliy ong va milliy mafkura kabi tunchalarni ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratganlar.

Ishning maqsadi: Milliy ong va milliy mafkurani o'rganish orqali o'quvchilardagi milliy ongni milliy mafkura asosida shakllantirishni tadqiq qilish va uning o'quvchi hayotidagi mental ijtimoiy – psixologik xususiyatini ochib berish.

Ishning ilmiy farazi: Milliy urf – odat va an'analar shaxsning mental ijtimoiy – psixologik muhitida o'ziga xos bo'lgan milliy ongi va milliy mafkurasi kabi xususiyatlarini shakllantirishi mumkin.

1. Milliy mafkura shaxs taraqqiyotida va uning shaxslararo munosabatida alohida bosqich bo'lishi mumkin.
2. Milliy ong va milliy mafkura shaxs shakllanishidagi o'rni turli urf odat, va qadriyatlarining namoyon bo'lishiga bog'liq bo'lishi mumkinligi.

Ishning vazifalari: Milliy mafkura asosida o'quvchi yoshlarni hayotida ijobiy xususiyatlarni shakllantirish.

Shaxs axloqiy sifatlarini shakllantirishda milliy ongni o'rni katta ekanligini keng ommaga havola etish.

Ishning nazariy ahamiyati va metodologik asoslari: Ilg'or ilmiy psixologiya fanida shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida milliy ong va milliy mafkura tushunchalarini ahamiyatini umumiy qonuniyatlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsiplari asosida yoritilishi - (B.M.Teplov,

V.S.Merlin, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G'. G'oziyev va boshqalar). Shaxs va ijtimoiy ustanovka prinsiplari (D.Uznadze, Sh.A.Nodirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar), shaxs va munosabat mutanosibli prinsiplari (V.N.Myasishev, T.Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlin va boshqalar), buyuk ajdodlarimizning ta'lim - tarbiya to'g'risidagi ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqalar.

Ishning obyekti va predmeti: Ishning obyekti – o'quvchi yoshlarning milliy ongi, predmeti – o'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakillantirishning psixologik xususiyatlari.

Ishning amaliy ahamiyati: Ishning natijalaridan sinf rahbarlari, maktab psixologlari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab direktori o'rinbosarlari va ota – onalar va keng omma foydalanishi mumkin.

Ishning metodlari:

1. Kuzatish, individual suhbatlar, faoliyatning mahsuldorligini tekshirish.
2. Kontent-tahlillar.
3. “Shaxs yo'nalganligi” (V.Smekal va M.Kucher).
4. “Qadriyatlar yo'nalishlari” (I.G.Senin).

I-BOB. MILLIY ONG VA MILLIY MAFKURANI SHAKLLANTIRISH - DOLZARB IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA.

1.1. Milliy mafkura muammosining ilmiy-uslubiy adabiyotlarda yoritilishi.

Ma'lumki, har qanday millat va halq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Xo'sh, mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun halqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqloq g'oyasi» bo'yicha mazkur mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan.

G'oya tushunchasi. Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson – ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami; ikkinchisi – fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruhiy olam (bu sohani ruhshunoslik ilmi psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur, kechinma, his-hayajon, diqqat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya'ni mantiq fani o'rganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri – til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsuli so'z bo'lgani kabi, tafakkurning dastlabki shakli – tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha so'zlar bilan ifodalanadi; ammo har qanday so'z ham tushuncha bo'la olmaydi. So'zlar vositasida anglatilgan fikr gap deb atalishini biz boshlang'ich sinflardan oq bilganmiz.

Inson tafakkuri voqyelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda g'oya, mafkura, ideya va ideologiya tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq g'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi Idyea so'zidan olingan, ideologiya uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (Idyea – g'oya, tushuncha, logos – ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

– g'oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi.

– muayyan g’oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

G’oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo’lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G’oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-akliy kuchga aylanadi.

G’oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g’oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo’yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g’oyalar ta’sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g’oyalarni o’z e’tiqodiga singdiradi, o’z navbatida yangi g’oyalarni yaratadi va targ’ib etadi.

Xar bir narsaning o’z ibtidosi va intihosi bo’ladi. G’oyalar ham o’z «umri»ga ega. Ular ham ma’lum makonda va zamonda paydo bo’lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo’shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o’z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yuqotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. G’oyaga ta’rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarni sanab o’tish lozim bo’ladi. G’oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, g’oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo’lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o’tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug’vor fikrga aytiladi.

G’oyalarning turlari ko’p. Tafakkurning mahsuli sifatida g’oya tevarak olamni o’rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari – ilm-fan, din, falsafa, san’at va badiiy adabiyot, ahlok, siyosat va huquq – muayyan bir g’oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma’lum ma’noda aytilish mumkinki, har bir ong sohasining o’z g’oyalari mavjud bo’ladi.

Mazmuni va namoyon bo’lish shakliga qarab, g’oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan:

- diniy g’oyalar;
- ilmiy g’oyalar;
- falsafiy g’oyalar;
- badiiy g’oyalar;
- ijtimoiy-siyosiy g’oyalar;
- milliy g’oyalar;
- umuminsoniy g’oyalar va xokazo.

Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra, jon quchib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin.

Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik – yakka xudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Yakka xudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa Jahon dinlari – xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Alloxning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

Ilmiy g'oyalar – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor koidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir. G'oyalarning «hayoti», ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, ko'rashi, va nixoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo'linmaydigan zarrasi, deb «atom» tushunchasini kiritgan edilar. Ptolemey-Aristoteldan tortib, urta asr Ulug'bek astronomiyasigacha dunyoning markazi yer deb hisoblab kelganlar; Yevklid geometriyasi, Nyuton mexaniqasi, Darvin ta'limoti ham o'z davrining eng ilg'or ilmiy g'oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo'linishini, koinot markazi Yer emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexaniqasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko'plab kashfiyotlar kilindi.

Fan taraqqiyoti o'zluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyot tasdiklanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan urin almashaveradi.

Falsafiy g'oyalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni urab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida tuplangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida muloxaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli halqlarning akl-zakovat soxiblari, dono faylasuf va iloxiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar. (Siz bo'lar bilan falsafa tarixini o'rganish paytida batafsil tanishgansiz.) Ammo falsafiy g'oyalar haqida gap ketganda, Jahon falsafiy fikri rivojiga beqiyos hissa kushgan o'zbek mo'tafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas. Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daxolarining komil inson haqidagi, Ibn

Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasi.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir halq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, ulmas g'oyalar halqlarga kuch-quvvat va ilxom bagishlab, ularni o'z erki uchun ko'rashga safarbar etib kelgan.

Ozodlik g'oyasi – mazlumlarni o'z erki uchun ko'rashga chorlaydigan, kullik va karamlikning har qanday kurinishini inkor etadigan g'oyadir.

Mustaqillik g'oyasi – eng ulug va ezgu g'oya. Xar bir halq istiqlol tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiklardan halos bo'ladi, o'z saloxiyatini tula-tukis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini kulga kiritadi.

Xar bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, halqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g'oyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g'arazli fikrlar ham ko'p bo'lgan. Binobarin, halqlar va davlatlar takdiriga ta'siri, o'zining sifatlariga ko'ra g'oyalar yuksak yo tuban, bunyodkor yoki vayronkor, buzg'unchi yoxud ekstremistik, tajovuzkor bo'lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, halqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir¹. Odamlar orasiga nifok, halqlar urtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat ko'zgaydigan tuban fikrlar buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida bunday kabix niyat va soxta shiorlarni g'oyadeb atash ham shartlidir. Kaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday axoli guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga karab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Milliy g'oyahalarning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir. o'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va halq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nixoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bagrikenglik» kabilar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

¹ Islom Karimov. Biz kelaqagimizni uz kulimiz bilan kuramiz. «O'zbekiston», 7-jild, 308-bet.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida uchmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayxon Beruniy, Imom Gazzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat soxiblari yonmayon yashab faoliyat kursatgan davr yorokin misol bo'la oladi. Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo'lgan ekzistensializm kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko'zga tashlanmokda.

Ilmiy kashfiyotlar ham mafkura rivojiga katta ta'sir utkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-nasl haritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmokda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, bir tomondan, inson akl-idrokining imkoniyatlariga, kelajakka ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy kirgin qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chikarmokda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan okilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

G'oyava mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati. G'oyaning inson hayotidagi urni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning soxibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatleri yuksak insongina mardlik namunalarini kursata oladi.

Ming yillar utsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va kaxramonligi halqning xotirasidan uchmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Axmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida utkazganida ham, Najmiddin Kubro mugul boskinchilariga qarshi jang qilganda ham ulugvor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oyatufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan kaytmagan, Nasimiy, tovonidan suysalar ham, ishki iloxiy deb jon bergan. Jahon tarixidan, jumladan halqimizning o'tmishidan ham, kaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulugvor g'oyakerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Muayyan bir g'oyadastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy bekarorlik esa millatning birdamligi, davlatning kudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orkaga surib yuboradi. Masalan,

Chingizxon boskini, chor istilosi davrlarida ayrim xukmdorlarning halqni birlashtirib ko'rashga safarbar etmagani ulkamizning karamlik changaliga tushib kolishiga sabab bo'lgan.

Xullas, insoniyat tarixi xilma-xil g'oyava mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat o'zluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilish i, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga karab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'lsa, vayronkor g'oyalarga tayangan mafkuralar halqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoksiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, g'oyaviy jarayonlar tarixini o'rganish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi.

Jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, halq hayotini farovon qilish dek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizasiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmokda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boki g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik halqimizga otabobolaridan merosdir.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urugini sepgan zot, paygambar Zardusht yaratgan «Avesto» kitobida kuyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alkayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish) ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz ugiraman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil mukaddam yashab utgan vatandoshimiz Zardushtning ulmas mafkurasi edi.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoklab, yomonlikka qarshi ko'rashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlardir. Shark halqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatleri turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir kursatdi. Ana shunday ta'sir ostida Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu kadar yuksaldiki, usha davrda yaratilgan shox asarlar va ularning muallifleri merosi xano'z bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmokda. Shu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning xakikiy umumbashariy madaniyati g'arb sivilizasiyasi va Shark ma'naviyatining kushilishi asosida yaratilgan.

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning halqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol kurish mumkin. O'zbekistonning halqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barkarorlik xukm surishiga asos bo'lib xizmat kilmokda.

Yana bir yovuz g'oya– terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta taxdid solmokda. Jamiyatga doimiy kurkuv, fitna-galamislik muxitini vujudga keltirish, zuravonlik yo'li bilan jamiyat barkarorligini bo'zish, gunoxsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi uldirish va portlashlar bu mudxish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy terrorizm XIX asrdayok vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikda keng kuloch yozdi. G'arbiy Germaniyadagi «kizil armiya» va Italiyadagi «kizil brigada» guruhleri, Ispaniyadagi basklar tashkiloti, Olsterdagi «Inqilobiy-haloskorlik armiyasi», Perudagi «Porlok hayot» kabi birlashmalar zamonaviy siyosiy terroristlarning birinchi avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning unlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar xududlarida ham terrorizm uchoklari paydo bo'ldi. Ular mustaqil O'zbekistonga qarshi kuch yigmokda. Chunonchi, Toshkentda 1999 yilda yuz bergan fevral voqyealari, 2004 yil mart oyida Buxoroda bo'lgan terroristik harakatlar, halqimizni demokratik taraqqiyot yo'lidan kaytarishga bo'lgan urinishlari tuxtamaganidan guvoxlik beradi.

G'oyaviy ko'rash tobora yangi-yangi kiyofaga kirmokda. Prezidentimiz Islom Karimov xakkoniy ravishda ta'kidlaganidek: «Ko'p sinovlar, azobu ukubatlar, xatolar, fojealar, katagonlarni boshdan kechirgan, asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr busagasida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro ko'rashi har kachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmokda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy okimlar, mazxab va sektalar urtasidagi fikr talashuvlari goxo baxs-munozara doirasidan chikib, konli tuknashuvlar, ommaviy kirginlarga sabab bo'lmokda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmokda».

Ana shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda xozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrogi bo'lgan milliy g'oyava mafkurani shakllantirish va halqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmokda. Bu mafkura mustaqillik yillarida erishilgan galabalarni, eng katta yutugimiz bo'lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizning baxtli kelajagini fidoyilik bilan ximoya qilish, doimo xo'shyor va sergak bo'lishga yordam beradi. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi har birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g'oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimiz, butun faoliyatimizning muhim qismidir.

Xozirgi davr-dunyoda g'oyaviy karama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchlirok bo'lib borayotgan davrdir.

Dunyoning xududiy jihatdan turli mintaqa va kit'alarga bo'linishini geografiya daralaridan yaxshi bilamiz. Jahonning siyosiy haritasiga karab va mavjud davlatlarning chegaralarini hisobga olgan holda ham Yer yuzining xududiy bo'linishini bemalol tasavvur qila olamiz.

Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy kashshoklik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot okimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham bormokda. Butun Yer yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shak-shubxa yuk, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan xududlarni bosib olish uchun son-sanoksiz urushlar bo'lgani ma'lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borganini bilamiz. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'prok bir davlat ichida, ikki davlat urtasida yoki nari borganda bir mintaqa doirasida bo'lishi mumkin edi. To'g'ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki urta asrlardan boshlab yevropalik istilochilarning boshqa kit'alarni zabt etish olib borgan urushlari kulami jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday xolatlar istisno hodisalar sifatida baxolanmogi kerakka uxshaydi. XX asrda ro'y bergan ikkita Jahon urushida unlab davlatlar, bir necha kit'a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak bunday xulosa muayyan darajada urinli ekanligiga ishonch xosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa xududni bosib olish uyokda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yuk qilib tashlashga yetadi. Shu bilan birga, xozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yuk emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irkchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun ko'rash tobora kuchayib bormokda. Bu xol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermokda.

Kishilik jamiyati tarixi insonda olijanob fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham, ayni paytda gayriinsoniylikning xilma-xil kurinishlari ildiz otib o'zining mudxish kiyofasini namoyon qilish iga ham ko'p bor guvox bo'lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamroxlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl - shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin tarakkiy qilish iga katta xavf tugdirmokda.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmokchi bo'layotgan mafkura shakllari barkarorlik va taraqqiyotga taxdid solmokda. Ularning asosiy shakllari va yo'nalishlari Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ko'rsatib berilgan. Mazkur ma'ruzada ana shu asardan asosiy manba sifatida foydalanamiz.

Taraqqiyotga nisbatan xavf-xatarlardan biri buyuk davlatchilik shovinizmidir. Buyuk davlatchilik shovinizmini, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni urab turgan jugrofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutlak xukmronligini urnatish uchun ko'rashda namoyon bo'ladi»².

Ko'rinib turibdiki, buyuk davlatchilik shovinizmi gayriinsoniy xarakterga ega. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra milliy tengsizlikni oklash, targib - tashvik qilish hamda ximoya qilish ning o'ziga xos shaklidir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi paydo bo'lishining sabablari nimada? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda buyuk davlatlar makomiga ega bo'lgan ayrim mamlakatlar ko'pgina mintaqalarni o'zlarining «hayotiy manfaatlarini» xududi sifatida bosib olib, uzok vaqt mustamlakachilik siyosati yurgizganiga ishonch xosil qilish mumkin. Aynan bosib olingan xududlarning tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish, bu mamlakatlarning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zlashtirish ularga ulkan va kudratli davlatga aylanishga imkoniyat yaratdi. Buning oqibati ularok, o'z atrofidagi mamlakatlar va halqlar bilan munosabatda o'zini ustun, tanxo va yagona deb bilish, insoniyat takdiri, halqlar kelajagini belgilashda alohida mavkega da'vogarlik ifodasi sifatida baxolanishi mumkin bo'lgan mumtozlik mafkurasi tarix saxnasiga chikdi. Bunday mafkura davlat siyosatining asosiga aylanganda uzok davom etgan konli urushlar kelib chiqishi, butun bir mintaqalarning vayron bo'lishi, ko'plab halqlarning karam kilinishini isbotlovchi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat takdiridan o'zining tor manfaatlarini ustun kuyadigan, o'zaro kelisha olmayotgan, xokimiyatga da'vogar siyosiy guruhlarining mavjud muammolarni tashki kuchlar yordamida hal qilish ga urinishi va ma'naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ulari xukmron bo'lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamonaviy tarix ham ko'rsatib turibdi.

Afsuski, bizning ulkamiz ham buyuk davlatchilik shovinizmining falokatli ta'siridan chetda kolmadi. «U ham uzok vaqt davomida xukmron shovinistik va agressiv millatchilik g'oyalarining butun jafolarini tortib keldi,- deb yozadi Islom Karimov.- O'zbekiston Rossiya imperiyasi, sungra esa sobiq Sovet imperiyasi tarkibida majburan ushlab turilgan murakkab davrni boshdan kechirdi»³.

2 И.А. Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Тошкент, Ўзбекистон, 1997 йил, 52-бет.

3 И.А. Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Тошкент, Ўзбекистон, 1997 йил, 53-бет.

Buyuk davlatchilik shovinizmining xavfi bunday pozisiyada turgan kuchlar, davlatlarning iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy salohiyatining kattaligidagina emas, balki axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyik ko'rsatish imkoniyatlarining kengligida, ular kulidagi g'oyaviy ta'sir utkazish vosita va mexanizmlarining xilma-xilligida hamdir.

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta'sir utkazishning yangidan - yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochikdan-ochik korlash, yerga urish yoki ayrim tarixiy voqyea-hodisalarni umuman bo'lmagandek, Jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa kushgan ulug' allomalarimizni bizga alokasi yukdek qilib ko'rsatishga urinishlar mavjud.

Shuningdek, mintaqa davlatlari urtasida ziddiyatlar keltirib chikarish va Jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tugdirishga bo'layotgan intilishlarni xech kachon e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun ko'rash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida xukmronlik qilish ga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiyligiga asoslangan holda yakka mafkura xukmronligini ta'minlash orqali Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga karam qilish ga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin. Diniy aqidaparastlik shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi xozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, kaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona halifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Kurinib turibdiki, bu diniy-siyosiy ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi uringa kuyadi. U diniy-ma'naviy zamindagi uygunlik mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi hamkorligiga, ular salohiyatining birlashishiga va halqlar taraqqiyotiga yo'l ochsa buning nimasi yomon degan savolni urtaga tashlaydi. Yuzaki karaganda bu gap to'g'riga uxshaydi. Bunday mafkura tarafdorlari o'z qarashlarini aksariyat xollarda ana shunday «beozor» shaklda takdim etishga harakat qiladilar.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, birinchidan, ular milliy suverenitetdan voz kechish yoki uni boy berish hisobiga yagona davlat to'zishni ko'zlayotganlari ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, halifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu xol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l kuymasligini yashiradilar. Bu g'oyani tikishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilish imizga alohida urgu beradilar.

To'g'ri, biz musulmon halqmiz. Masalaning noziq jihati shundaki, bunday kuchlar ana shu reallikni tan oladilaru, o'z tariximiz, tilimiz, betakror madaniyatimiz, Jahon halqlari urtasidagi o'ziga xos urnimiz, o'z taraqqiyot

yo'limiz borligini inkor etishga harakat qiladilar. Albatta bu haqiqatni tan olish olmaslik ularning ishi. Ammo o'zlarining bunday gayriilmiy qarashlarini kishilarimiz, ayniqsa yoshlarimiz ongiga singdirishga harakat qilayotganliklariga befarq karab bo'lmaydi.

Bundan tashkari, bu okim tarafdorlari halifalik bayrogi ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan boglashlarini ham ta'kidlash zarur. Bunday yondashuv o'ta xavfli ekanligi xech kimga sir emas. Zero, u insoniyatning diniy asosda karama-qarshi kutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan «sivilizasiyalar tuknashuvi» deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylik, boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni yuzaga keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish tarixi uzok o'tmishga borib takaladi. Bugungi kunda ularning har biri o'ziga xos tarzda dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan urinni egallashga urinmokda.

Bugungi kunda halqlarning lisoniy birligiga tayangan holda ularning ma'naviy-ma'rifiy birligini ta'minlash bayrogi ostida takdim etilayotgan g'oyalar ortida ham aslida g'arazli maqsadlar yashiringanligini unutmazlik lozim.

Olaning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasi haqidagi muloxazalar yakunida nima deyish mumkin? Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini kulga kiritgan, demokratik xuquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib kolmokda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish Milliy ong va milliy mafkurava unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.»Men,- deb yozadi Prezidentimiz,-Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushoxada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun kanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, xozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir»⁴.

Bu masalaning dolzarbliги yukorida kayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ularga g'oyava ma'rifat bilan qarshi ko'rashish lozim. Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saklab kolish va rivojlantirish yo'li bilangina kulga kiritilgan istiqlolni ximoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan alokalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng xukukli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro

4 И. Каримов. Жамиятимиз мафкуриси халкни-халк, миллатни-миллат килишга хизмат этсин. Т.,Ўзбекистон, 1998, 17-бет

manfaatli alokalar esa mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina, Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda, mintaqamiz xech kachon sivilizasiyalar tuknashmaydigan, balki ular bir - biriga ta'sir etib, bir - birini boyitishning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

Xozirgi davr va mafkuraviy poligonlar. Jamiyat hayotida mafkuraviy omillarning sezilarli ta'siri mavjudligini bir qarashdayok sezish mumkin.

G'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir utkazishda eng avvalo bo'lib tashla va xukmronlik kil degan kadimiy tamoyilga amal qilish ga urinishni ta'kidlash zarur.

Bu tamoyilni ruyobga chikarishning birinchi yo'li mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chikarishdir. Va u jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida o'ziga xos kurinishda namoyon bo'lmokda. Masalan, mamlakatimizga nisbatan bu usul o'tish davridagi ijtimoiy - iqtisodiy kiyinchiliklarni burttirib ko'rsatish orqali axolining mavjud xolatdan noroziligini uygotish, o'z nogoralariga uynaydigan muxolifatchi kuchlarni yuzaga keltirish yo'li bilan siyosiy bekarorlikni keltirib chiqarishga bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ldi. Bu yo'lda diniy omildan foydalanishga urinishlar ham ko'zatilayotir. Ana shu xolat ham «maqsad vositani oklaydi» degan aqida g'arazli geostrategik manfaatlarni ruyobga chikarishning asosiy koidasiga aylanayotganligini kursatadi.

«Bo'lib tashla va xukmronlik kil» tamoyilini amalga oshirishning ikkinchi yo'li mintaqa davlatlari urtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirishdir. Bu yo'ning eng keng tarqalgan usuli guyoki mintaqada gegemonlikka talabgor bo'lgan davlat borligini asoslash, ta'bir joiz bo'lsa, shunday davlat obrazini yaratishdir. Bunday obrazlarning yaratilishi yer yuzining turli nuktalarida nizoli, kam deganda davlatlararo munosabatlarda tanglikni yuzaga keltirganligi to'g'risidagi misollarni istagancha topish mumkin. Bunday «obrazlar» yaratilishi natijasida mamlakatlarning moddiy-moliyaviy, ma'naviy-intelektual saloxiyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlash urniga ana shu «obraz» ta'sirining oldini olishga yunaltirilmokda. Natijada ikkinchi asosiy maqsadga- muayyan davlatni zaiflashtirish orqali o'z «ittifoq chisiga» aylantirishga erishilmokda.

«Bo'lib tashla va xukmronlik kil» tamoyilini amalga oshirishning uchinchi yo'li halqaro maydonda muayyan mamlakat haqida noto'g'ri, noxolis tasavvurlarni shakllantirishdir. Xalqaro munosabatlar maydonidan ayrim mamlakatlarning vaqti-vaqti bilan «kuvgin» kilinib turilishi ana shunday harakatlar natijasidir.

Mafkuraviy immunitet va mafkuraviy profilaktika. Mafkuraviy ta'sir va taxdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baxolash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini kayd etish lozim. Ular qatorida «mafkuraviy immunitet», «mafkuraviy profilaktika» kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda xozirgi dunyoda kechayotgan

mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolrok tasavvur qilish imkoni tugiladi.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun ko'rash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oyatom ma'noda g'oyabo'lishi uchun kishilar ongini egallashi, to'g'rirogi ularning qalbidan joy olishi shart. Aks holda u yoki bu g'oyafaqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egalab yotaverishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bunday xolatda g'oyashaxs uchun xech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. G'oyafaqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy xolatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, ragbatlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy ko'rashning bosh maqsadi bo'lib kolmokda.

Aynan shuning uchun ham Yer yuzining turli mintaqalari halqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda mafkuraviy poligonga aylantirilmokda. Xo'sh, mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz? Poligon (grek. serkirra degan ma'noni bildiradi) harbiy termin ekanligiga urganib qolganmiz. Odatda poligon deganda qurol-aslaxa va texnikani sinash, kushinlarni harbiy tayyorgarlikdan utkazish yoki harbiy sohada mashk va tadqiqodlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Shu nuktai nazardan karaganda, mafkuraviy poligonlarning xususiyatlari haqida nima deyish mumkin? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga xududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari o'zluksiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan toki avtomatik qurollargacha, zambaraklardan to yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan kit'alararo ballistik raketalarigacha bo'lgan uzok takomil yo'lini bosib utdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan xududlar axolisini jismonan yuk qilish ga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga xududlarni zabt etish uchun ularning axolisini yukotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari «ma'kul» yo'nalishga o'zgartirilgan axoli kumagida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib kolmokda. Mamlakatimiz ichida o'zlarining gayriislomiy g'oyalarini tarkatishga harakat qilgan kimsalar ana shunday g'arazli maqsadlarni, ya'ni odamlar, ayniqsa yoshlarni chalgitish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishni ko'zda tutgan edilar. Chet ellarda ana shunday «ta'lim» olgan vaxxobiylar, shuningdek «xizbut taxrir»chilarning yoshlarimiz ongini zaharlash yo'lidagi harakatlarini ham aynan shunday baxolash mumkin.

Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan gayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun axolida mafkuraviy immunitet xosil

qilish lozim. Immunitet (lat. immunitas - ozod bo'lish, kutilish) deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saklashi, o'zini turli xususiyatlarga ega ta'sirlardan, uni tashki infeksiyalar kirib kelishidan ximoya qilish ga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashki ta'sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi. Immunitet haqidagi ana shu tasavvurdan kelib chikib mafkuraviy immunitet haqida nima deyish mumkin? Avvalo, insonning ko'plab xususiyatlari tugma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin (immunitetga ega bo'lmagan chakaloklarning uzok yashay olmasligini eslaylik).

Xo'sh, mafkuraviy immunitet tizimi o'z ichiga nimalarni oladi? Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, vokalikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish i lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va halq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi bilan uzviy bog'lq bo'lmogi kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zahirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam kalkon bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'lq . Ya'ni har bir kishi kabi, halq, davlat va jamiyatning ham aniq maqsadi bo'lishi shart. Shu bilan birga bu maqsad anglangan, uni amalga oshirishda sobitqadamlik darkor. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xox alohida inson, xox millat yoki jamiyat bo'lsin, gox oshkora, gox pinxona kurinishdagi mafkuraviy tazyiklarga bardosh berish amrimaxoldir.

Bunday mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning urni katta. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalarning kirib

kelishining oldini olish va ularni yukotishga qaratilgan chora - tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy- tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bir so'z bilan aytganda, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini kamrab oladi.

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga taxdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan xukmronlik qilish , uning boylıklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar domiy xavf sifatida saqlanib kolishi mukarrar», - deb yozadi Prezidentimiz. Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so'z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallash orqaligina mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan ko'rashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yunaltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ko'plab odamlar qalbi va ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli halqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmining mintaqamiz, xususan mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tugdirayotganligini Prezidentimiz teran anglab, bu qanday daxshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan hammamizni ogox qilgan edi. Toshkentda fevral fojealari sodir etilmasdan ikki yil oldin Prezident I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston XX1 asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli fundamental asarida shunday yozgan edi: «Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan «Islom uygonish», «Kayta islomlanish», «islom fenomeni» va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat kildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborni Jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrogi ostida ro'y berayotgan hodisalar O'oyat xilma-xil, ko'p kirrali, ba'zan ziddiyatli va xatto karama-qarshi kutbli ekanligiga karatmokchiman. Shu bilan birga aniq-ravshanki, Jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta kizikish bilan karabgina kolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotganligi ba'zan esa, xatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmokda. Afsuski, xozirgi zamon sharoitida ana shu o'ta keskin kurinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chikarishi, barkarorlik va xavfsizlikka taxdid solishi mumkinligini insoniyatni chuchityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha tuplanib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini

mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuktai nazardan karaganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tugdirmokda»⁵. Bu fikr haqiqat bo'lib chikdi. Ekstremistlar 1999 yilning 16 fevrali, 2004 yilning 28-31 mart kunlari o'zlarining kora niyatlariga erishish maqsadida Toshkent hamda Buxoro viloyatlarida ko'poruvchilikni amalga oshirdilar. Bu ko'poruvchilik harakatlari orkasida katta kuchlar borligi ayon. Ularning maqsadi, – Prezidentimiz ta'kidlaganidek, – halqimizning tinchligini bo'zish, kurkitish, yuragiga vaxima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchni sundirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarga zarba berishdan iborat. Xo'sh, nima uchun bu fojealar O'zbekistonda sodir etildi, uning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga ta'siri bo'lishi mumkinmidi? Uning Vatanimizda sodir etilishiga asosiy sabab shuki, yurtimizda olib borilayotgan siyosatning yutuqlari Jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmokda. Nisbatan kiska davr ichida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barkaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy merosni va diniy qadriyatlarni tiklab, inson xukuklarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakatdir. Xalqining Prezidentga, davlatga ishonchi nixoyatda mustahkam bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyoda barkarorlikni ta'minlash va mintaqa davlatlarining o'zaro integrasiyalashuvi jarayonida yetakchilik kilmokda. Xuddi mana shu o'ta katta ahamiyatga ega bo'lgan omillar, asoslangan istikboldagi yutuqlar halqimiz va malakatimiz taraqqiyotining dushmanlarini vaximaga solmokda.

Agar O'zbekistonda dushmanlarimiz mo'ljallagan maqsadlar amalga oshsa, bu nafaqat bizda, balki butun mintaqa davlatlarida ham juda katta siyosiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'lishi, mintaqaviy integrasiya jarayonlariga o'zining ulkan salbiy ta'sirini utkazishi mumkin edi. Terroristlarning amalga oshirgan ko'poruvchilik harakatlari ko'zlagan maqsadiga yetmadi va yetolmaydi ham.

O'zlarini islom dinining «ximoyachilari» deb ko'rsatishga urinayotgan terroristlarning asl niyati chinakam islomiy qadriyatlarni tiklash emas, balki xokimiyatni kulga kiritish, Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni o'zlari tanlagan yo'ldan kaytarish va butun mintaqada o'z xukmronligini urnatish edi. Aslida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda xakikiy islomiy qadriyatlarimiz tiklandi va bu yo'nalishda izchillik bilan katta ishlar amalga oshirilmokda. Dinimizning halqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanganligi Prezidentimizning kuyidagi fikrlarida o'z aksini topgan: «Biz o'z millatimizni mana shu mukaddas dindan ayri holda aslo tasavvur kilolmaymiz. Diniy qadriyatlar hayotimizga shu kadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yukotamiz.

5 Ислам Каримов. Ёзбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. 34-бет.

Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Ollox bizning qalbimiz da, yuragimizda»⁶.

Umuman Markaziy Osiyo halqlari mustahkam do'st ligining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, mintaqa tub halqlarining ma'naviy ildizlari bir, ruhi, turmush tarzi yaqin, ular ana shu boy manbadan birdek baxra oladilar. Shu ma'noda ham ular birligini mustahkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi. Bu jarayonga qarshi qaratilgan har qanday mafkuraviy ta'sir yoki terroristik harakatlar umummintaqaviy qarshilikka uchraydi va barbod bo'ladi.

1.2. Milliy ong va milliy mafkura immunitetni shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy ishlar.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, ijtimoiy va siyosatida bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilishi zarurati paydo bo'ladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: «O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hych bir davrda milliy g'oyava milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har kaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har kaysi inson o'z yo'lini yukotishi mukarrar»⁷.

G'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bir kunda va birdaniga paydo bo'lmaydi. Bunda muayyan jarayonlar ro'y berishi lozim. Ya'ni eski g'oya va mafkura tanazzulga yuz tutishi, umrini o'tab bo'lishi, o'tmishga aylanadi. Masalan, sobiq ittifoq mafkurasida ana shunday holga tushgan edi. Uning asosiy g'oyalari sobiq sho'rolar xokimiyati rahbarligida zo'rlik bilan amalga oshirildi. Natijada bu mafkura yakka xukmron bo'lib qolgan edi.

Sobiq mustabid tuzum o'rnida yangi mustaqil davlatlar shakllandi. Xukmron mafkura barham topgach, uning xududida ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq holati vujudga keldi.

Xo'sh, aslida g'oyaviy bo'shliq nima? G'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning urnini bosadigan

6 Ислам Каримов. Оллох Қалбимизда юрагимизда. «Туркистон пресс» ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар. Халқ сғзи, 1999 йил 6-март.

7 Миллий истиклол гоғси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., «Ўзбекистон», 2000, 5–6-бетлар.

ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan xolatidir. Bunday sharoitda turli mafkuralar ushbu xududga o'z ta'sir doirasini utkazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston xududida ham namoyon bo'ldi. Uning o'ziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat edi. Birinchidan, xukmron, yakkaxokim bolshevistik — kommunistik mafkura batamom tanazzulga yuz tutdi va uning urni bo'shab qoldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida karor topgan bo'lsa-da, uning mafkurasi hali tula-tukis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan edi. To'g'ri, mustaqillik mafkurasi g'oyalari mamlakatimiz fuqarolarining ma'lum qismi ongi, dunyoqarashida o'z urniga ega bo'lsa-da, Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida isbotlangan bo'lsa-da, ammo u hali tula holda barchaning mustaqil dunyoqarashiga, mustahkam e'tiqodiga aylana olmagan edi.

Uchinchidan, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda mukarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar xuruji boshlanadi. O'tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashki mafkuraviy ta'sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay ololmaydi. O'zbekistondagi mafkura maydoniga begona, halqimizning orzu-intilishlariga mutlako yot g'oyalarning xujumi ana shu bilan ham izoxlanadi.

To'rtinchidan, mustaqil mamlakatimiz tinch-osoysishta yashayotgan bir paytda Afgoniston va boshqa yaqin xududlardagi bekaror vaziyatdan foydalanib, ularning xududiga in kurib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi tudalar o'z jinoyatkorona maqsadlarini amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy ko'rashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi.

Bu jinoiy guruhlar o'zlarining yovuz maqsadlarini turli islomiy, mafkuraviy g'oyalar bilan nikoblashga harakat kildilar. Ana shu soxta g'oyalarni tarkatib, yoshlarni yo'ldan ozdirishga intildilar. Ayniqsa 80-yillarning ikkinchi yarmidan din nikobidagi zararli, halqimizning iymon-e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan qarashlarni, vaxxobiylik, xizbut-taxrir kabi harakatlarning ta'sirini yoyishga kirishdilar. Bu harakatlar 90-yillarning boshiga kelib yanada kuchayidi. Mamlakatimiz axolisining tinchligi va osoysishtaligiga «vaxxobiylik», «xizbut-taxrir», «akromiylik», «adolat uyushmasi», «islom lashkarlari», «tavba» kabi turli zararli g'oyalarga asoslangan kuchlar va harakatlar taxdid sola boshladi.

Ular utgan yillarda konli jinoyatlar, tartibsizliklar sodir etdilar. 1999 yil 16 fevraldagi Toshkent portlashlarida ham ularning kuli bor edi. 1999 va 2000 yillar davomida mamlakatimiz chegara xududlarida sodir etilgan terrorchilik harakatlarida katnashdilar, O'zbekiston davlati, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga qarshi tajovuzlar uyushtirdilar.

Xo'sh, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida ayrim yurtdoshlarimiz nima uchun zararli g'oyava yot mafkuralar ta'siriga tushib qoldi?

Birinchiidan, sobiq mustabid mafkura barbod bo'lganidan keyingi dastlabki yillarda milliy g'oya, istiqloq mafkurasi to'liq shakllanib, odamlarning qalbi va ongiga singib ulgurmagani edi. Natijada e'tiqodi bush, sodda va ishonuvchan odamlar bilib-bilmay noto'g'ri yo'llarga tushib qoldilar.

Ikkinchiidan, mustaqil O'zbekiston eski tuzum dan yangi tuzumga o'tish jarayonida bir qator tabiiy kiyinchiliklarga duch keldi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, o'tish jarayonida kiyinchiliklar bo'lishi qonuniydir. Jumladan, iqtisodiy sohada ham kiyinchiliklar bo'lishi mukarrar. Bunday paytda sabr-kanoatga urganmagan, yengil yo'l bilan yashashga kunikkan ayrim kishilar ma'lum kiyinchiliklarga duch kelgach, o'z turmush tarzini yangilash uchun oson yo'l axtardi. Ular aksariyat hollarda adashib, noto'g'ri yo'llarga kirib qoladi. Ijtimoiy foydali mehnat bilan shugullanish urniga yengil yo'l bilan boyishni xoxlovchilar ham shunday guruhlariga kushilib kolishi mumkin.

Uchinchiidan, bugungi kunda yoshlarning hammasini ham serdaromad ish bilan ta'minlash imkoni yuk. Ular diplomi, ma'lumoti bo'lsa ham, ba'zan kungildagidek ishni topa olmaydi yoki kam ish xaki olib ishlashni xoxlamaydi. Buning natijasida yana oson yo'l axtarib noto'g'ri, yomon, salbiy harakatlarga kushilib ketishi ham mumkin.

To'rtinchiidan, zararli va yot mafkura vakillari halqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning kungli ochik, soddadil, ishonuvchan, diniy qadriyatlarga intilish tuyg'usidan ustalik bilan foydalanmokda. Bunday sharoitda ayrim soddadil odamlar «mana endi daxriylikdan kutuldik», degan xayollar bilan dinning asl mohiyati bilan diniy nikobdagi ekstremizmni ajrata olmay qoldi. Shu bilan birga islom amallarini yaxshi bilmagan ayrimlar ota-bobolarimizning mukaddas dinini urganamiz, deb, vaxxobiylik, xizbut-taxrir kabi turli zararli g'oyava okimlar ta'siriga tushib qoldilar.

Beshinchiidan, sobiq tuzum davrida ko'plab tashkilotlar zo'rlik orqali majburiy bo'lsada, muntazam targ'ibot-tashviqot olib borar edi. Lekin mustaqillik davrida ularning urni muayyan darajada bo'shab qoldi va bu vazifani dastlab hyech kaysi tashkilot bajarmadi. Keyinchalik tashkil etilgan. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi va boshqalar esa yetarli darajada samarali faoliyat yuritilmadi. Natijada har bir fuqaro imkoni boricha o'z dunyoqarashini o'zi mustaqil shakllantirishi zarur bo'lib qoldi. Bunga qodir bo'lmagan ayrimlar zararli g'oyalar ta'siriga berila boshladi. Ayniqsa, yoshlarni uyushtirish, istiqloq g'oyalari yo'lida fidoyi etib tarbiyalashi lozim bo'lgan «Kamolot» jamg'armasi faoliyati ham istiqloq talablariga javob bermas edi. Natijada ko'plab yoshlar istiqloq g'oyalariga asoslangan tarbiyaviy jarayonlardan chetda qolib ketdi.

Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada yetarli ish olib bormagani, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orkada qolgani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy yechimini topmagani, odamlarga

mafkuraviy jihatdan to'g'ri yo'l ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslar, diniy ulamolarning yetarli emasligi ham bunga sabab bo'ldi.

Xullas, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilishi natijasida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelar ekan, turli mafkuraviy taxdidlar kuchayadi. Shu ma'noda, Prezident Islom Karimovning kuyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: «Men kuxna bir haqiqatni yana eslatmokchiman: tabiatda bo'shliq bo'lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l kuyib bo'lmaydi. Xar bir ongli odamning vokelikka o'z munosabati, maqsad va intilishlari bo'lishi tabiiy»⁸. G'oyaviy, mafkuraviy taxdid kuchaygan joyda axoli keng qatlamlari, xususan, yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan urinishlar kuchayib boradi.

Ayniqsa, dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta moliyaviy va mafkuraviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan ba'zi g'oyaviy markazlar ana shunday vaziyatdan foydalanib, o'z yovuz niyatlarini amalga oshirish yo'lida kechayu kunduz harakat kilmokda.

Xalqaro terrorchi va ekstremistlarning niyati aniq. Ular istiqloq yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi g'oyaviy bo'shliqni o'z g'oyalari bilan to'ldirib, mamlakatimiz xududidagi beqiyos boylklarga egalik qilish, halqimizni o'z siyosati, o'z hukmronligiga buysundirishni, eng yomoni, mana shu muhim geopolitik maydonni o'z ta'sir doirasiga olishni orzu kilmokda.

1.3. O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishning psixologik xususiyatlari.

Mamlakatimiz halqining qalbi va ongiga yot mafkurani singdirish uchun dushmanlarimiz bir qarashda beozor, guyo siyosatdan xoli tuyuladigan mafkuraviy vositalarga katta e'tibor bermokda. Jumladan, keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan yengil-yelpi yoki jangarilik filmlari bunga misol bo'ladi. Ma'lumki, bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa yoshlar maroq bilan tomosha qiladi. Sir emas, anchagina odamlar tabiatida, xulq-atvorida mana shunday to'polonlarga moyillik bo'ladi.

Mamlakatimizga tahdid solayotgan mafkuraviy vositalardan yana biri uzok davom etadigan mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga urinish bo'lib, buni ayrim mamlakatlar xududida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi g'oyaviy-mafkuraviy markazlar o'zlariga maqsad qilib olgan. Ular muayyan mamlakat xududidan boshqa mamlakatga qarshi giyoxvand moddalar, ta'qiqlangan adabiyotlar, turli qurol-yarog' kabi narsalarni noqonuniy tarzda olib o'tishga urinmokda. Ularning ma'lum bir kuchlari Afg'oniston xududida turib, Markaziy Osiyo davlatlariga – O'zbekiston va Kirg'iziston xududiga, bu yerda yashayotgan halqlar hayotiga qarshi tajovuzkorona harakatlar qilishga, begunox insonlar qonini to'kishga intilmoqda. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «bunday o'taketgan

8 «Фидокор» газетаси, 2000 йил, 8-июн.

xunrezlik, muttahamlikni o'ziga kasb qilib olgan bizning umumiy dushmanlarimizga mukaddas zaminimizda aslo urin bo'lmasligi kerak».

Bu taxdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizasiya yutuqlaridan maxrum etishga, pirovard natijada yurtimizni karam qilib olishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir.

Xalqimizni turli g'oyaviy taxdidlardan asrash, jamiyatimiz a'zolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, avvalo, ularni milliy g'oya, istiqlol mafkurasini bilan qurollantirish zarur edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan sung mamlakatimizda eski mafkura asoratlariga, kuruk safsatabozlikka, halqimiz manfaatlariga zid bo'lgan sobiq siyosiy va mafkuraviy to'zilmalarga barham berildi. Ijtimoiy adolat, xavfsizlik, ijtimoiy muxofaza, millati, dini va e'tiqodidan kat'i nazar, fuqarolarning xukuk va erkinliklari, sha'ni va kadr-kimmatini, qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar kurildi. Jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-siyosiy muxitni bo'zadigan, odamlar fikrini chalgitadigan noxo'sh xolatlarga barham berildi. Mamlakat va halq manfaatlari yo'lida birlashish, hamjihat bo'lish, barcha imkoniyatlardan extiroslarga berilmay, akl-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Lekin mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatimizda ma'naviy poklanish zarurati sezildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov shunday sharoitda birinchi bo'lib jamiyatda ma'naviy poklanish uchun eski aqidalardan halos bo'lish lozimligini ko'rsatib berdi, keyinchalik esa milliy istiqlol mafkurasini yaratish zaruratini asosladi va jamiyatimiz e'tiborini unga karatdi.

O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon barpo etish g'oyasi asosida milliy istiqlol mafkurasini ishlab chikildi.

Milliy g'oya, istiqlol mafkurasini ijtimoiy taraqqiyot rivojiga karab takomillashib, yangilanib boradi. Davr talabi bilan urtaga tashlangan muayyan koidalar o'z vazifasini o'tab bo'lib, urnini yanada dolzarbrok boshqa xususiyatlarga bushatib beradi. Milliy istiqlol g'oyasi ayni ana shunday doimiy yangilanish mahsuli, ong va tafakkur xosilasi hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va uni buyuk davlatga aylantirish haqidagi siyosiy, xuquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy, ilmiy, ekologik, diniy, demografik tarixiy qarashlar yigindisi bo'lib, O'zbekiston halqini istikbolga yuksak ishonch, iymon-e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyat kudratli ma'naviy qurol, g'oyaviy omil hisoblanadi. Ana shu sababdan ham mamlakatimiz xududini yosh mafkuralar poligoniga aylanishiga yo'l kuymay, O'zbekiston halqining ongi, dunyoqarashi, hayotga ijtimoiy munosabati, xatti-harakatlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib, milliy istiqlol mafkurasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bugungi kundagi muhim vazifadir. «Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini

mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish , ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmashlik, ota-bobolarning mukaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va xurmat qilish fazilatini karor toptirish. Ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir»⁹.

Mafkuraviy ko'rashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning ulmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros mukaddas dinga sog'lom munosabatni karor toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz maqsadga muvofikdir.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish orqali ularda mafkuraviy immunitet xosil qilish zamon amri, davr talabi. Bu bir zumda, birpasda amalga oshiriladigan jarayon emas. Bunda har bir kishining faolligi, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa O'zbekistonimizning salohiyatini yanada oshiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etilishini ta'minlaydi, odamlarimizning e'tiqodini mustahkamlaydi.

Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozisiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloq iy, siyosiy, xuquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Xar qanday axloq iy, siyosiy, xuquqiy tarbiya muayyan g'oyani ximoya qilish , targib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, yovuzlik, bexayolik, shafkatsizlikni targib etish orqali yoshlarni axloq iy jihatdan bo'zishga qaratilgan badiiy filmlarda jamiyat barkarorligiga raxna solishdan iborat mafkuraviy maqsad yashiringandir. Binobarin, g'oyalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy shakllarda targib etilishi mumkin. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yunaltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda xo'shyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Milliy istiqlol mafkurasi birinchi navbatda hayotga endigina qadam kuyayotgan yosh avlodning hayotiga yangicha ma'no va mazmun baxsh etishga, unda faol hayotiy pozisiyani shakllantirishga qaratilgandir. Chunki yoshlar faqat milliy g'oyatimsolidagina mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va halq farovonligini ta'minlashning muhim vositasini ko'radilar. Yoshlar tabiatan turli g'oyalarga kizikuvchan va ularga tez beriluvchan bo'ladilar. Milliy istiqlol mafkurasi hali turmushning achchik-chuchugini tatib kurmagan, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan ana shu avlodni milliy manfaat va taraqqiyotimizga yot bo'lgan soxta va buzg'unchi g'oyalar tajovuzidan ximoya qiladi, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi..

⁹ Ислом Каримов. «Миллий истиқлол мафкуриси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир», Тошкент, «Ўзбекистон», 2000 йил, 11-бет.

Insoniyat taraqqiyotga intilar ekan, unda bunyodkorlik hissi mavjud ekan, ilg'or g'oyalar dunyoga kelaveradi. Boskinchilik, talonchilik intilishlari buzg'unchilik g'oyalari ta'sirida yuzaga chikadi. Shu boisdan ham bunday zararli g'oyalarga qarshi ko'rashga doimo tayyor turish, yot g'oyava mafkuralardan ogox bo'lish hayotiy zarurat bo'lib kolmokda.

Mamlakatimizning ko'pmillatli halqi ongida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani karor toptirish – istiqlol mafkurasining muhim vazifalaridan biridir. Bunda «Yagona Vatan» g'oyasi o'zining tub mohiyati bilan milliy mustaqilligimizga putur yetkazadigan mahalliychilik, oshnaogaynigarchilik illatlarini tag-tomiri bilan yukotishda, yurtimizda istikomat qilayotgan turli halq va millat vakillarida yagona vatan farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqlol mafkurasida donishmand halqimizning «kuch – birlikda», «birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» singari makol va xikmatli so'zlarining mohiyat va mazmunini teranrok anglash, kishilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni xurmat qilish, el-yurt xizmati uchun doimo shay turish, iymon-e'tiqodli, insof-diyonatli, saxiy va halol bo'lish kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalaydi. Vatanning sajdagox singari mukaddasligini teran anglash, fidokorona mehnati bilan rizk-ro'z bunyodkori bo'lgan zaxmatkash halqqa, onazaminga, tarix va madaniy merosga, ajdodlarimiz merosiga xurmat hissini tarbiyalaydi.

Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va halq farovonligi uchun fidoyilik iymon-e'tiqodli ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan buyuk merosdir.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasi o'zining eng oliy maqsadi, vazifalari va xususiyatlariga ega. Uning oliy maqsadi yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, xuquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida halqimizni jiplashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogoxlik hissini kamol toptirish, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda mafkuraviy tushnuchani tarbiyalash bilan uzviy bog'lq bo'lib qolaveradi.

II- BOB. MUAMMONING QUYILISHI VA TADQIQOD VAZIFALARI.

2.1. Shaxs yo'nalganligi diagnostikasi va uning tahlili.

O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkura kabi xususiyatlarni shakillanganlik darajalarini bilishda biz shaxsni yo'nalganlik darajalarini diognstika qilishimiz lozim. Shuning uchun tadqiqodimizda “Shaxs yo'nalganligi” (V.Smekal va M.Kucher) testidan foydalanamiz.

Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib, ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, B, S tarzida).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan Sizning ichki dunyongizda eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz-“V”).

Endi javob varaqasining tegishli satridan “V” harfini topib, uning chap yoniga (“to’g’ri keladi” degan so’zlar ostiga) belgi (“+”) qo’ying.

O’sha so’zni yana bir marta o’qing. Endi qolgan ikki javob varianti (“A” va “S”) orasidan Sizning nazaringizga eng kam to’g’ri keladiganini yoki Siz uchun qimmatini eng past bo’lganini tanlang (faraz qilamiz-“A”). So’ngra javob varaqasining yana o’sha satridan “A” harfini topib, uning o’ng yoniga (“to’g’ri kelmaydi” so’zlari ostiga) belgi (“+”) qo’ying. Uchinchi javob varianti esa (“bizning misolda-S”) hiech qayerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan “+” belgisini qo’yishingiz kerak bo’ladi: birinchisi-A, V yoki S variantlaridan birining “to’g’ri keladi” ustidagi katakchasiga, ikkinchisi shu variantlarning “to’g’ri kelmaydi” katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o’ylanib o’tirmang. Ba’zan bir vaqtning o’zida ikkita yoki uchala variant javoblar tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to’g’ri javob xayolga birinchi kelgan javobdir.

1. Men, qachonki:

A. Qilayotgan ishni atrofdagilar qo’llab-quvvatlashsa;

V. Biror ishni o’zimga ma’qul, ko’nglimdagidek bajarsam;

S. Atrofdagi yaxshi do’stlarim borligini his etsam.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, volleybolchi) bo’lganimda edi:

A. O’yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trener bo’lishni istardim.

V. Mashhur o’yinchi bo’lishni istardim.

S. Komanda kapitani etishni tayinlashlarini istardim.

3. Xaqiqiy pedagog quyidagi xususiyatga ega bo’lishi kerak:

A. O’quvchilarga alohida-alohida yondashib, har biri bilan qiziqsin.

V. O’quvchilarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg’otsinki, ular shu predmet doirasida ko’proq bilim olishga intilsinlar.

S. Sinf jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo’rqmay o’z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsin.

4. Men:

A. O’zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman.

V. Jamoada ko’pchilik bilan mehnat qilishni yoqtiradigan kishilarni yaxshi ko’raman.

S. Topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do’stim:

A. Odamlarni tushunadigan, kerak bo’lganda qo’lidan kelgunicha yordam bera oladigan bo’lsa;

V. Xar doim so’zining ustidan chiqqa oladigan, sadoqatli bo’lsa;

S. Aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo’lsa

qanoatlanish hosil qilardim

6. Eng yaqin do'st shunday kishiki, u:

- A. Men bilan yaxshi munosabatlarda bo'lsa.
- V. Eng yaqin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo'lsa
- S. Katta hayotiy tajribaga va ko'p yutuqlarga erishgan bo'lsa.

7. Men:

- A. Ishimning o'ngidan kelmasligini;
- V. O'rtoqlarim bilan munosabatimning buzilishini;
- S. Atrofdagilarning meni tanqid qilishlarini;

juda istamagan bo'lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o'qituvchi:

- A. Ba'zi o'qituvchilarni yoqtirmasligini, ularning ustidan kulishini va kinoyasini yashira olmasa.
- V. Kollektivda raqobatchilik kayfiyatini yaratsa.
- S. O'zi dars bergan fanni yaxshi bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko'rganim:

- A. Ko'proq o'rtoqlarim bilan o'ynash edi.
- V. Qum to'dasidan uycharlar yasab, zavqlanish edi.
- S. Biron narsa uchun meni maqtashlari edi.

10. Quyida ta'rifi berilgan kishilarga o'xshashni juda-juda xoxlardim:

- A. Xayotda katta lavozimlarda ishlagan kishi.
- V. O'z ishiga chinakam berilgan kishi.
- S. Do'stonaligi va oqko'ngilligi bilan ajralib turgan kishi.

11. Menimcha, maktabning birinchi vazifasi:

- A. Xayotdagi to'siqlar, muammolarni hal qilishni o'rgatish.
- V. O'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
- S. Odamlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga yordam beradigan sifatlarni tarbiyalash.

12.Bo'sh vaqtim ko'proq bo'lganda, nazarimda, undan quyidagicha foydalangan bo'lar edim:

- A. Do'stlarim bilan suhbatlashirdim.
- V. Ko'proq dam olib, hordiq chiqargan bo'lardim.
- S. O'zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o'qish, o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lardim.

13. Katta yutuqlarni qo'lga kiritishim mumkin, agar:

- A. Chehrasi iliq bo'lgan kiilar bilan ishlasam.
- V. Bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo'lsa.
- S. Qilgan ishim yaxshi rag'batlantirilishi mumkin bo'lsa.

14. Menga juda yoqadi, agar:

- A. Odamlar meni qadrlashsa.
- V. Biror ishni yaxshilab, oxiriga yetkazib bajarsam.
- S. Vaqtimni do'stlar orasida qiziqarli o'tkazsam.

15. Agar men haqimda gazetada yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

A. Biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;

V. Men bajargan ishlar haqida gapirilsin;

S. Albatta men o'qitgan yoki ishlayotgan jamoa haqida bayon etishlsin.

16. Men juda yaxshi o'qigan bo'lardim, agar o'qituvchi:

A. Meni tushunsa va o'zlingimni nazarga olib, to'g'ri munosabat qila olsa.

V. Predmetlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olsa.

S. Dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa.

17. Men uchun eng yomoni:

A. G'ururimni poymol qilinishi.

V. Zarur ishimni o'ngidan kelmasligi.

S. Do'stlarimdan ajralib qolishim.

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

A. Muvaffaqiyat.

V. O'zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoni.

S. Kundalki hayotda ijodkorlik, hur fikrlik.

19. Men yoqtirmaydigan kishilar:

A. O'zini boshqalardan past ko'ruvchilar.

V. Badjahl, tez-tez janjal chiqaruvchi kishilar.

S. Xar qanday yangilikka qarshi chiquvchi odamlar.

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

A. Xamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish.

V. Yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi.

S. Odamlarni hayratda qoldirish, hammaga yoqish.

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

A. Qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi.

V. Obro'-e'tiborli, viqor-salobatli bo'lishi.

S. O'ziga va boshqalarga talabchan bo'lishi.

22. Bo'sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblarni o'qigan bo'lardimki, ular:

A. Do'st orttirish, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish sirlari haqida yozilgan bo'lsin.

V. Mashhur va ko'p qirrali insonlarni hayoti to'g'risida yozilgan bo'lsin.

S. Fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari to'g'risida yozilgan bo'lsin.

23. Muzika sohasida qobiliyatim bo'lganida edi:

A. Dirijyor bo'lgan bo'lardim.

V. Bastakor bo'lardim.

S. Qo'shiqchi bo'lardim.

24. Istardimki:

A. Qiziqarli bir konkurs o'ylab topib, uning rejasini tuzsam.

V. Biror bir konkursda g'olib chiqsam.

S. O'zim konkurs tashkil etishb, uni olib borsam.

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

A. Nima ish bajarishim kerakligini.

V. Maqsadga erishish yo'llarini.

S. Maqsadga erishish uchun atrofdagi odamlardan qanday foydalanish kerakligini.

26. Inson shunga intilishi kerakki:

A. Boshqalar undan xursand bo'lsinlar.

V. Unga buyurilgan ish, avvalo, vijdonan, chin ko'ngildan bajarilsin.

S. Qilgan ishi uchun u hych kimdan gap eshitmasin.

27. Bo'sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

A. Do'stlarim bilan suhbatlashganda.

V. Qiziqarli filmlarni tomosha qilib, hordiq chiqarganda.

S. O'zim sevgan ish bilan mashg'ul bo'lganda

2.2. Qadriyatlar yo'nalishining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari.

Tadqiqodimizga yanada oydinlik kiritish maqsadida biz o'quvchilarni milliy ong va milliy mafkura kabi xususiyatlarni "qadriyatlar yo'nalishlari" (**I.G.Senin**) metodikasi asosida o'rganamiz.

Kishining har xil istak va xoxishlarini aks ettiradigan savollar diqqatingizga havola etishladi. Xar bir savolni yaxshilab o'qing va uning mazmunini o'zingizga qiyoslab ko'ring. Javob variantlari quyidagicha:

1. Men uchun hych qanday ahamiyati yo'q.
2. Unchalik muhim emas.
3. Ma'lum ahamiyatga ega.
4. Muhim, zarur.
5. Juda muhim, ehtiyojij zarur.

Bilingki, bu yerda yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q. Eng to'g'ri javob chin ko'ngildan, xolisona berilgan javobdir. Shu sababli barcha savollarga o'ylab, haqqoniy javob berasiz, degan umiddamiz.

Marhamat boshladik.

1. Biro ishiga atrofdagilarning yuqori baho berishi.
2. Ish joyim orqali har xil kamyob narsalarga ega bo'lish.
3. Barchaning hurmatiga sazovor bo'lish uchun o'qib, ilm olish.

4. Ish faoliyatimda ixtirochi bo'lish, yangilikka intilish.
5. Ko'p o'qish, ko'proq ma'lumotga ega bo'lish evaziga farovon hayot manbaiga erishish.
6. Oila a'zolarimning meni hurmat qilishlari.
7. Xamkasblarim bilan bajarilayotgan ish xususida tez-tez maslahat olib, suhbatlashib turish.
8. O'ragnayotgan bilim sohamda biror bir yangilik yaratish.
9. Oilamning boy – badavlat hayot kechirishi.
10. Atrofdagilarning nazariga tushadigan darajada ijtimoiy-siyosiy voqyealardan xabrdor bo'lish.
11. Kasbiy mahoratimni doimiy ravishda oshirib borish.
12. Xar xil odamlar bilan faol muloqotda bo'lish uchun yuqori ma'lumot darajasiga ega bo'lish.
13. Uy sharoitimning ko'rinishini doimo o'zgartirib, yangilab turish.
14. Jamoat ishlarida faol qatnashib, moddiy mukofotlar olish.
15. Xavas va qiziqishlarim bilan atrofdagilarni hayratga solish.
16. Kasbiy faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
17. Olgan bilimlarimni tinimsiz rivojlantirish, keng doiradagi ilmiy ma'lumotga ega bo'lish.
18. Oilada yetakchi bo'lish, muloqotchanlik muhitini yaratish.
19. Jamiyat hayotiga har xil yangiliklar kiritish, odamlar yangicha ong, yangicha fikrni shakllantirish.
20. Bo'sh vaqtlarimda daromad keltiradigan ishlar bilan shug'ullanish.
21. Obro'-e'tibor keltiradigan kasb sohasida ishlash.
22. Biror ishni boshlagach, unga chin qalbdan, berilib ishlash.
23. Biror sohada ta'lim olib, katta muvaffaqiyatlarga erishish.
24. Oilamda har xil tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa oilalardagi voqyealarni sinchkovlik bilan o'rganish.
25. Ijtimoiy hayotning yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun odamlarni bir-biriga birlashtirish, hamjihatlikni yo'lga qo'yish.
26. Bo'sh vaqtimda ilgari mavjud bo'lmagan biror yangi narsani ixtiro etishsh.
27. Ish sharoitidan foydalanib, shaxsiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.
28. Ilmiy darajalar va unvonlarga ega bo'lib, obro'-e'tibor qozonish.
29. Boshqa kasblardan ijobiy farq qiladigan o'ziga xos kasb sohasida ishlash.
30. Chin yurakdan berilib o'qish, ilm olish.
31. Farzandlarimning har tomonlama rivojlanishi, tengdoshlaridan ustun bo'lishi.
32. Jamoat ishlari bilan shug'ullanib, tashkilotchilik qobiliyatimni rivojlantirish.
33. Qiziqishlarim doirasida o'rtoqlarim bilan birgalikda biror bir to'garakka, klubga a'zo bo'lish.
34. Kasbiy faoliyatimda har xil ish uslublarini sinab ko'rish.

35. O'qigan soham bo'yicha qo'shimcha moddiy ta'minlanish imkoniyati (masalan, har xil pullik mukofotlar, grantlar yoki tanqis mollar uchun alohida imtiyozlar).
36. Turmush o'rtog'imning obro'-e'tiborli oilada bo'lishligi.
37. Oddiy kishilardan farq qilish uchun tinmay o'qib, ilm olish.
38. Farzandlarimni ma'naviyati butun va to'g'riso'z insonlar qilib tarbiyalash.
39. Aniq maqsadlar bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etishsh.
40. Bo'sh vaqtlardagi qiziqishlarimdan butun qobiliyatlarimni namoyon qilib, o'z ustimda ishlash.
41. Odamlar bilan tez-tez muloqotda bo'lish imkoniyati bo'lgan kasb sohasida ishlash.
42. Ilm-fanda yangi, qiziqarli kashfiyotlar qilish, ilmiy unvonlar olish.
43. Turmush o'rtog'imning oladigan maoshining yuqori bo'lishi.
44. Biror tashkilotga rahbarlik qilib, obro'-e'tiborli bo'lish.
45. Ko'pchilikning fikriga qarshi bo'lsa ham oilaviy hayotda o'z qarashlarimga tayanish.
46. Jamoat ishida faol ishtirok etishb, ma'naviy ozuqa olish.
47. Qiziqishlarim doirasidagi maqsadlarimga tezroq erishish.
48. Kasbiy vazifamni yuqori saviyada bajarish.
49. Turli ilmiy muammolarni hal etishshga qaratilgan anjumanlarda faol qatnashish.
50. Oilani boshqarish, bola tarbiyalashning har xil usullarini o'ylab topish.
51. Jamiyatda o'z o'rnimni topib, badavlat yashash.
52. Xavvas va qiziqishlarim doirasida erishgan yutuqlarim bilan mag'rurlanib yurish.
53. Ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashimda o'zgalarning ta'siriga berilmaslik, o'z qarashlarimga ega bo'lish.
54. Bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlarim bilan butunlay berilib shug'ullanish.
55. Kasbiy faoliyatimda aniq maqsadlar sari intilib, tez orada ularga erishish.
56. O'qish, ta'lim olish jarayonida aqliy qobiliyatlarimni rivojlantirish
57. Oilam a'zolarining to'y-ma'rakalarida, turli bayram va marosimlarda faol qatnashishi.
58. Jamiyatimiz taraqqiyotiga, uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga yangi taklif va g'oyalarim bilan hissa qo'shish.
59. Shaxsiy qiziqishlarimni moddiy boylik keltiradigan faoliyatga qaratish.
60. Mening havas va qiziqshlarim o'zimga xos hislat va qobiliyatlarimni aks ettirishi.
61. Qaysi kasb egasi bo'lmayin, u mazmunli, odamlar uchun foydali, halol bo'lsin.
62. Ilmiy daraja va unvon olish uchun aniq reja asosida harakat qilish.

63. Ahil hayot kechirish uchun turmush o'rtog'imning fe'l-atvorini tushunish va unga moslashish.
64. Jamiyat hayotida faol qatnashish, tajribali odamlar bilan hamkorlik qilish.
65. Bo'sh vaqtlarimda har xil qiziqarli, ijodiy ishlar bilan shug'ullanish.
66. Ish faoliyatimda o'zimning uslubimga ega bo'lish.
67. Ma'naviy dunyomni boyitish uchun ilm bilan shug'ullanish.
68. Oilaviy hayotimni obdon rejalashtirish.
69. Jamoat ishlari jarayonida odamlarni o'z fikrlarimga iqror etishshni, ishontira olishni o'rganish.
70. Bo'sh vaqtlarda do'stlar bilan hamkorlikda qiziqqan mashg'ulotlarim bilan band bo'lish.
71. O'qish va ta'lim olishda boshqa kishilar bilmagan, "tesha tegmagan" bilimlarni egallash.
72. Oilaga nisbatan halol va sadoqatli bo'lish.
73. Ijtimoiy va tashkilotchilik faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
74. Xavas va qiziqishlarimning doimiy ravishda ko'payib, rivojlanib turishi.
75. Farzandlarimda mustaqil dunyoqarash, o'zlariga xos fe'l-atvorning mavjud bo'lishi.
76. Jamiyat hayoti uchun foydali inson bo'lish.
77. Bo'sh vaqtlarimdagi mashg'ulotlarimni obdon o'ylab, aniq rejalashtirish va muvafaqqiyatlarga erishish.
78. Jamoatchilik orasida o'zimga xos mavqyega, o'z fe'l-atvorimga ega bo'lish.
79. Bo'sh vaqtimning ko'proq qismini yoqtirgan mashg'ulotlarim bilan o'tkazish.
80. Yaqin-atrofdagi hech kim shug'ullanmagan o'ziga xos va noyob mashg'ulotlar bilan band bo'lish.

QADRIYATLAR YO'NALISHLARI SAVOLNOMASI:

Ma'lumki, ko'pgina mo'taxassislar shaxs yo'nalganligini tashhis etishshda mezon sifatida muayyan hayotiy maqsadlarni, qadriyatlarini asos qilib oladilar. Sababi, qadriyatlar yo'nalishlari tizimi shaxs yo'nalganligining asosiy mazmunini belgilaydi va uning atrof-olamga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatini, hayotiy faoliyat motivlarining mazmunini, shaxsning dunyoqarashini tashkil etadi. Qadriyatlarni ikki turga ajratish mumkin – 1) maqsadli qadriyatlar va 2) vositali qadriyatlar.

Muayyan hayotiy maqsadlar sari yo'nalgan qadriyatlarga maqsadli qadriyatlar deb ataladi: Boshqa so'z bilan aytganda, har bir shaxs o'ziga xos umumhayotiy g'oyalarga, o'zining yetakchi hayotiy maqsadlariga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, odamlar bilan aloqada bo'lish ba'zi kishilar hayotining asosiy mazmunini, maqsadini tashkil etadi, bunday kishilar ko'pincha, hayotning barcha sohalarida shaxslararo muamalarda bo'lish imkoniyatini juda qadrlaydilar. Binobarin, bu-maqsadli qadriyatlardan

hisoblanadi. Shunindek, biror bir kasb-korga yoki bilim sohasiga chin yurakdan mehr qo'yib, mehnat qilish va tinimsiz ilm olib rivojlanishni hayotning mazmuni deb bilish va shu kabilar ham ana shunday maqsadli qadriyatlarga kiradi.

Vositali qadriyatlar: shaxsning u yoki bu xulq – atvorini, hatti-harakatlarni tanlanishida aks etadi. Ya'ni vositali qadriyatlar (fe'l-atvor namunalari) kishining maqsadli qadriyatlariga, umumhayotiy g'oyalariga erishish uslubini ifoda etadi.

Qadriyatlar to'g'risidagi mazkur nazariy qarash dastlab M.Rokich tomonidan ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik barcha mo'taxassislar tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, Rossiyada I.G.Senin (1991) tomonidan ishlab chiqilgan va 200 yilda Respublika tashhis Markazida modifikasiya qilinib, o'zbek milliy muhitiga moslashtirilgan Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasining¹⁰ asosiy g'oyasi ham ushbu nazarga tayanadi va asosiy e'tibor bilan maqsadli qadriyatlarni tashhis etishshga qaratilgan.

Metodika chop etishlgandan so'ng ko'plab empirik ma'lumotlar olinib, yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy yo'nalganligini aniqlashda muvaffaqiyat bilan ishlatildi. Olingan ma'lumotlar, to'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, metodika o'quvchining ruhiy dunyosini chuqur tahlil etishshga qaratilgan. O'z-o'zini baholash, o'zini tahlil etishsh tajribasiga ega bo'lmagan ba'zi bir o'quvchilar metodika savollariga tushunmay yoki yengil tushunib, yuzaki javob berish hollari ham uchraydi. Shu sababli, tajribani o'tkazuvchi mo'taxassis, avval metodikaning o'ziga xos tomonlarini did bilan o'rganishi kerak. Ikkinchidan, to'g'ri va to'liq tushuntira olishi, o'quvchilarning diqqatini o'ziga qarata olishi juda zarur va uchinchidan, har bir o'quvchining hatti-harakatlarini tajriba davomida kuzatib borishi, savolni tushunmay, uning ma'nosini to'lqi anglay olmay turgan o'quvchilarga ko'maklashishi, dalda berib, diqqat bilan ishlashga da'vat etish turishi kerak. Xar qanday savolnoma metodikalardek ushbu metodika ham o'quvchining tetiklik bilan, ogohona, har bir savolga haqqoniy, o'ziga nisbatan tanqidiy ruhda javob berilishiga juda sezgirdir.

Tavsiya etishlayotgan savolnoma tarkibiga quyida keltirilgan 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarga doir savollar kiritilgan.

1. Oliy nufuzga ega bo'lish, ya'ni muayyan ijtimoiy talablarga rioya qilish yo'li bilan jamoatchilik nazarida bo'lishga intilish, ijtimoiy talablarga rioya qilgan holda jamoatchilik yoqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan faoliyatga intilish, o'z mavqyeini tobora baland ko'taradigan faoliyat turini izlash va bajarish payida bo'lish.

¹⁰ Қодиров К.Б. Қадриятлар йўналишлари саволномаси (ҚайС). Амалий психологлар учун методик қўлланма. Низомий номли ТДПУ. Токент. 2000 йил.

2. **Yuqori moddiy ta'minlanganlik**, ya'ni farovon hayot omillariga tiriklikning asosiy mazmuni sifatida munosabatda bo'lish.
3. **Ijodkorlik**, ya'ni o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, tevarakdagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga intilish.
4. **Faol ijtimoiy munosabatlar**, ya'ni ijtimoiy hamkorlik jarayonida iliq hissiy munosabatlarni o'rnatishga intilish, odamlar bilan ishlashni, hamkorlik qilishni yoqtirish hislati.
5. **O'z ustida ishlash**, ya'ni o'z shaxsiy hislatlarini anglab, doimiy ravishda o'z qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga erishish.
6. **Yutuqlarga yo'nalganlik**, ya'ni o'z oldiga muayyan hayotiy maqsadlarni qo'yish va albatta ularga erishishga hayotning asosiy omili sifatida yondashish hislati.
7. **Ma'naviy qoniqish**, ya'ni ma'naviy fazilatlar va ehtiyojlarni yoki har xil ijtimoiy talablar, rasm-rusumlardan ustun qo'yish xususiyati.
8. O'zlikni saqlash, ya'ni o'z fikr va qarashlarini boshqa har qanday qarashlardan ajrata olish, ba'zan ustun qo'yish, o'zining betakrorligi va o'ziga xosligini, mustaqilligini muhofaza etishsh.

Shu bilan birga, insonning turli hayotiy sohalarda faoliyat ko'rsatib, ularda har xil ijtimoiy vazifalarni bajarishi nazarga olinganda, quyidagi 5 turdagi vositali qadriyatlar turkumini tashkil etadigan hayotiy sohalarni farq qilish mumkin:

- 1) kasb-hunar olami;
- 2) o'quv-tarbiya sohasi;
- 3) oilaviy hayot;
- 4) ijtimoiy hayot;
- 5) qiziqishlar olami;

Xar bir inson ushbu hayotiy sohalarni u yoki bu tarzda tanlar ekan, bu tanlovda maqsadli qadriyatlar ham ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ya'ni muayyan hayotiy soha shaxsning qadriyatlariga qanchalik muvofiq kelsa, shaxs uchun shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, oilaga bo'lgan hurmat, sadoqat, ishonch, oilaning moddiy ta'minoti yoki manaviy yetukligi uchun javobgarlik kabi hislarning aks ettirish uchun oilaviy hayotning naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va h.

Shunday qilib, ushbu metodika bir tomondan, turli hayotiy sohalarda o'z aksini topgan muayyan maqsadli qadriyatlarning ustivorligini aniqlasa, ikkinchi tomondan shaxsning yo'nalish va aqidalariga bog'liq bo'lgan u yoki bu hayotiy sohaning shaxs uchun ahamiyatini o'lchashga yordam beradi.

Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasining tarjima etishlgani, milliy muhitga moslashtirilgani, uning ishonchlilik darajasini tahlil etishb, o'zbek psixologlariga taqdim etishlgani kasbga yo'naltirish ishlarida to'plangan chet eldagi ilg'or tajribalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, Respublikamiz ta'lim

tizimida bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlarga ijobiy hissa bo'lib qo'shiladi, degan umiddamiz. Metodikaning shaxs yo'nalganligi to'g'risida ancha mukammal, keng qamrovli ma'lumot berishini nazarga olib, uni maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim psixologlariga tavsiya etishsh mumkin.

Metodikaning tuzilishi va uni o'tkazish jarayoni

Ushbu metodika (3-ilova) jami 80 ta savoldan iborat bo'lib, savollar¹¹, bir tomondan, 8 ta qadriyat yo'nalishlaridan biriga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu savollar 5 ta hayotiy sohaga ham taalluqli qilib tuzilgan. Aniqroq qilib aytilsa, beshta hayotiy sohaning har biri sakkiz juft (16 ta)dan savol mavjud ($16 \times 5 = 80$) bo'lib, ayni paytda bu savollar sakkiz yo'nalishdagi maqsadli qadriyat yo'nalishi, besh xil hayotiy sohaga qaratilgan besh juft (10 ta) savol orqali aniqlanadi ($10 \times 8 = 80$).

Javob varaqasi (4-ilova) paralleogram shaklini eslatadigan 8×10 hajmli jadval (8 ta satr va 10 ta ustun) dan iborat bo'lib, savollar shunday tartibda joylashtirilganki, javob varaqasining har bir satri bittadan maqsadli qadriyat yo'nalishini aks ettiradi. Quyida ushbu satrlarning qaysi qadriyat yo'nalishlariga tegishli ekanligi ko'rsatilgan.

Yo'nalish raqami

1
2
3
4
5
6
7
8

Qadriyat yo'nalishlari

Oliy nufuzga ega bo'lish
Yuqori moddiy ta'minlanganlik
Ijodkorlik
Faol ijtimoiy munosabatlar
O'z ustida ishlash
Yutuqlargayo'nalganlik
Ma'naviy qoniqish
O'zlikni saqlash

Shuningdek, jadvalning dastlabki 5 ta (1-5) va keyingi 5 ta ustunlari (6-10) bir-birini takrorlagan holda beshta hayotiy sohani o'z ichiga oladi. Xar bir hayotiy sohaga taaluqli ustunlarni quyidagi javdaldan aniqlab olish mumkin:

Xayotiy sohalar

Ustunlar

¹¹ Бу ерда ва ундан кейин “савол” деганда сўроқ мазмунидаги эмас, балки кишининг ҳар хил истак ва майлларини, турли фикр ва тасдиқларни ифода этувчи хабар-дарак жумлалар назарда тутилади. Яъни методиканинг йўриқномасига биноан синалувчи ушбу гапларни ўқийди ва ўзи учун муҳим даражасини 5 баллик баҳолаш тизими бўйича жавоб varaқасида баҳолайди.

kasb-hunar olami;	1,6
o'quv-tarbiya sohasi;	2,7
oilaviy hayot;	3,8
ijtimoiy hayot;	4,9
qiziqishlar olami;	5,10

Ushbu metodikani tadqiqot guruhlarida o'tkazish uchun tajribadan o'tuvchilarga bittadan javob varqasi va savolnoma tarqatiladi va bajarilishi kerak bo'lgan vazifa tushuntiriladi. Metodika yo'riqnomasi savolnomada keltirilgan bo'lib, unga binoan sinaluvchi savolni o'qiydi va unda yoritilgan fikrning o'zi uchun muhimlik darajasini 5 balik tizim bo'yicha baholaydi hamda javob varaqasining tegishli katakchalarida qayd etish boradi.

Javoblarni "pastga engashgan" satrlar bo'ylab emas, balki odatdagidek gorizontal satrlar bo'ylab, ya'ni katakchalarning tartib raqamlariga rioya qilgan holda qayd etish lozim bo'ladi. Demak, savolnomada savollar shunday izchillik asosida joylashtirilganki, biror joyda mazmunan bir-biriga yaqin savollar yonma-yon tushib qolmaydi. Bu esa test mazmunining yoki tashhis yo'nalishining sinaluvchi uchun oydinlashib qolishining oldini oladi.

Demak, yuqorida qayd etishlganidek tajriba o'tkazuvchi har bir sinaluvchining nima ish bajarishi lozimligini to'liq tuuntira olishi va uzluksiz nazorat qilishi kerak. Sinaluvchi barcha savollarga javob berib bo'lgach javob varaqasi va savolnomani tadqiqotchiga topshiradi.

Natijalarni qayta ishlash: Javob varaqalarini qayta ishlashda tadqiqotchi quyidagi tartibga amal qiladi. Dastlab, birinchi "pastga engashgan" satrdagi (ya'ni 1,3,6,10,15,21,28,36,44,52 kataklardagi) raqamlarni jamg'arib, jadvalning o'ng tomonidagi, ya'ni oxiridagi 1-nomerli katakchaga yozib qo'yadi. Xuddi shu amal ikkinchi satr uchun ham bajariladi, ya'ni satr yig'indisi o'ng tomondagi 2-nomerli katakchaga yozib qo'yiladi va hokazo. 8 ta "pastga engashgan" satrdagi ko'rsatgichlar yuqorida bayon qilinganidek mos ravida 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarining saviyasini aks ettiradi.

Maqsadli qadriyatlar bo'yicha olingan natijalarning miqdoriy ko'rsatgichlari nazariy jihatdan olinganda 10 dan 50 gacha oraliqda o'zgarib turishi mumkin. Biroq bir sinaluvchining maqsadli qadriyatlar bo'yicha ko'rsatgichlarining eng kichigi 15 va yuqorisi 32 ga teng bo'lsa, boshqa bir sinaluvchining bu ko'rsatgichlari 29-45 oralig'ida bo'lishi mumkin. Ya'ni olingan yig'indilarning baland-pastligi faqat shu sinaluvchining subyektiv o'zini o'zi baholashiga bog'liq bo'lib, ularni boshqa sinaluvchilarning maqsadli qadriyatlari bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Sinaluvchi qaysi qadriyat bo'yicha eng yuqori bal to'plagan bo'lsa, mazkur qadriyat yo'nalishi sinaluvchi shaxsida ustunlik qilishidan dalolat beradi va aksincha.

Besh turdagi hayotiy sohalarning shaxsdagi o'rnini aniqlash uchun dastlab har bir ustundagi ma'lumotlar alohida-alohida jamg'ariladi. So'ngra javob varaqasida ko'rsatilgan tartibda 1- va 6-, 2- va 7-, 3- va 8-, 4- va 9- hamda 5- va 10 – ustun ma'lumotlarining yig'indi qiymatlari olinib, tegishli katakchalarga yozib chiqiladi (6-ilovaga q.).

Mazkur 5 ko'rsatgich mos ravida shaxsning besh hayotiy sohada tutgan o'rnini ifoda etadi.

Xayotiy sohalar bo'yicha olingan ko'rsatgichlar 16 dan 80 gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Amalda esa yuqoridagi maqsadli qadriyatlarga xos bo'lgan barcha qonuniyatlar hayotiy sohalar ko'rsatgichlariga ham tegishlidir. Demak, sinaluvchining qaysi hayotiy sohaga yaqinligini uning hayotiy sohalar bo'yicha tanlagan balarining baland-pastligiga qarab aniqlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bu metodikada ham javob varaqasining tuzilishi, metodika beradigan mazmunga bevosita aloqador. Ya'ni javob varaqasining tuzilishi, javob berish tartibi uni qayta ishlab mazmunli ko'rsatgichlar olishga to'liq bo'ysundirilgan. Shu sababli, ushbu javob varaqasining shakli o'ziga xos ko'rinishga ega. Shuning uchun ham metodikadan foydalanib, muhim va asosli ma'lumotlar olish istagida bo'lgan tadqiqotchi-psixologlar, albatta, birinchi navbatda, javob varaqasini bosmaxona sharoitida ayni o'zidek qilib ko'p nusxada chop ettirishlari yoki kseroks uskunasi metodik qo'llanmaga ilova qilingan nus'halaridan ko'chirma olishlari kerak bo'ladi.

Olingan natijalarning talqini:

I. Maqsadli qadriyatlar bo'yicha

Oliy nufuzga ega bo'lish. Ushbu ko'rsatgichlardan yuqori balga ega bo'lgan kishi hurmat-e'tibor qozonishga, boshqalarda o'ziga nisbatan yaxshi tasavvur paydo qilish ilinjida bo'ladilar. Ayniqsa, o'zi hurmat qilgan va eng ko'p ahamiyat bergan shaxslar oldida "uyalib qolmaslik" uchun o'z hatti-harakatlarida, qarashlarida ziyraklik, ehtiyotkorlik, yuqori toifadagi kiilarga bog'liqlik kabi alomatlarini namoyon qiladi. Ko'pincha, bu yo'nalish bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan sinaluvchilar boshqalarning ular haqidagi shaxsiy fikrlarini bilishga juda qiziqadilar. Chunki bunday kishilar o'z hatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan manfaatdor bo'ladilar.

Yuqoridagi moddiy ta'minlanganlik. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori bal egalari – asosan, moddiy ahvollarningmumkin qadar ko'tarishga intilgan kishilar. Bunday kishilar ko'pincha, moddiy farovonlikni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar. To'kin-sochin hayot ko'p hollarda bu toifadagi odamlarda o'zlariga yuqori baho berish, boshqa (ayniqsa, kamtarin hayot kechiradigan) kishilarni nazar-pisand qilmaslik kabi salbiy hislatlarni rivojlantiradi.

Ijodkorlik. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan shaxslar o'z ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, hayotning barcha sohalarida har xil o'zgarishlar, kiritishga intiladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Bu qadriyat yo'nalishi bo'yicha yuqori ko'rsatgich kishining boshqalar bilan o'zaro iliq munosabatlarni o'rnatishga doir intilishlarini aks ettiradi. Odatda bunday kishilar insonlararo munosabatlarning barcha ko'rinishlarini qadrlaydilar, ko'pincha, boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini hayotda eng qimmatli deb biladilar.

O'z ustida ishlash. Bu yo'nalishdan yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z xarakterlarining xususiyatlari, qobiliyatlari va boshqa shaxsiy fazilatlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadilar. Bunday kishilar odatda o'zlarini har tomonlama rivojlantirishga, barcha fazilatlarini kamol toptirishga intilib, cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligiga ishonadilar va ularni to'liq ro'yobga chiqarishga erishishni hayotning mazmuni deb biladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan kishilar o'zlarining turli hayotiy davrlarida aniq va sezilarli natijalarga, muayyan yutuqlarga erishishdan manfaatdor bo'ladilar. Bunday kishilar odatda o'z hayot yo'nalishlarini obdon rejalashtirib, uning har bir bosqichida o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yadilar va bu maqsadlarga erishish yo'lida qat'iy harakat qiladilar. Bundan tashqari, bunday kishilar ko'plab hayotiy yutuqlari tufayli, ko'pincha, mag'rur bo'lib o'zlariga keragidan yuqori baho berishga moyil bo'ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Bunday kishilar, odatda, o'zlarini ruhiy-ma'naviy jihatdan qoniqtiradigan hayotiy sohalarni tanlashga intiladilar. Ular ko'pincha, o'zlariga qiziq bo'lgan, ma'naviy ozuqa, ichki qoniqish baxsh etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishini juda zarur deb biladilar.

O'zlikni saqlash. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori bal odamning boshqalardan mustaqil bo'lishga doir intilishlarini ifoda etadi. Bunday kishilar odatda hayotda eng muhim narsa deb, o'z shaxsining betakrorligini va o'ziga xosligini, o'ziga xos hayot tarziga, dunyoqarashga ega bo'lishni tushunadilar. Atrofdagilarning ta'siriga kamroq berilib, mustaqil fikrlariga binoan ish yuritishga moyil bo'ladilar, o'ziga xos hayot tarziga ega bo'ladilar.

II. XAYOTIY SOXALAR BO'YICHA

Kasbiy faoliyat. Bu ko'rsatgichdan yuqori balga ega bo'lgan kishi o'z kasbiy faoliyat sohasiga katta ahamiyat beradi. Bunday kishilar ko'p vaqtini o'z ishlariga sarflaydilar, ishlab chiqarishdagi barcha muammolarni hal etishshga tezda kirishib ketadilar. Ular kasbiy faoliyatni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar.

O'quv ta'lim sohasi. Bu ko'rsatgichdan yuqori balga ega bo'lgan kishi o'qimishli bo'lishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchan bo'ladi.

Bunday kishilar o'qishni, yangi-yangi bilimlarni egallashni, hayotdan orqada qolmaslikni eng muhim narsa deb hisoblaydilar.

Oilaviy hayot. Bu ko'rsatgichdan yuqori balga ega bo'lgan kishi o'z oilasi bilan bog'liq bo'lgan barcha voqeyeliklarga katta ahamiyat berishi bilan ajralib turadi. Bunday kishilar oilaviy muammolarni hal etish yo'lida ko'p kuch va vaqt sarflashga moyil bo'ladilar, baxtli oila qurishni eng muhim narsa deb biladilar.

Ijtimoiy hayot sohasi. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan kishilar jamiyat hayotiga doir muammolarga katta ahamiyat berishlari bilan ajralib turadilar. Odatda, bunday kishilar ijtimoiy-siyosiy hayotga tezda kirishib ketadilar va o'zlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini insoniyat uchun juda muhim deb hisoblaydilar.

Qiziqishlar olami. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan kishilar hayotida ularning shaxsiy qiziqishlari asosiy o'rinni egallaydi. Odatda bunday kishilar bo'sh vaqtlarini to'laligicha muayyan qiziqish sohalari uchun sarflaydilar va bo'sh vaqtlarda biror bir soha bilan mashg'ul bo'lishni havas qilmagan kishilar hayotini zerikarli, ko'p jihatdan mazmunsiz deb hisoblaydilar.

XAYOTIY SOXALAR DOIRASIDA MAQSADLI QADRIYATLARNING TALQINI:

Kasbiy faoliyat: Oliy nufuzga ega bo'lish. Bu qadriyat odamning jamiyat tomonidan yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalishdan yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odatda o'zlari tanlagan kasb-korga nisbatan odamlarda qanday fikrda ekanligini bilishga qiziqadilar va obro'lroq biror kasbga ega bo'lish orqali obro'-e'tibor qozonishga intiladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar yuqori maoshni yoki boshqa moddiy ta'minotni kafolatlaydigan kasb-korni tanlashga moyil bo'ladilar. Agar tanlangan kasb sohalari o'zlari kutgan darajada moddiy rag'batlantirishni ta'min etmasa, ular o'z mo'taxassisliklarini o'zgartirishlari ham hych gap emas.

Ijodkorlik. Kishining o'z kasbiy faoliyatiga ijodiylik namunalarini kiritishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori balga ega bo'lgan kishilar mehnat faoliyatini odatdagi tarzda yuritishdan, har kun bir xil usulda ish qilishdan, tezda zerikib qoladilar. Shuning uchun doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatiga turli yangiliklar, o'zgarishlar kiritishga bo'lgan intilish ularga xos hislatlardandir.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining o'z kasbdoshlari bilan iliq, do'stona muommalada bo'lishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalishdan yuqori balga ega bo'lgan kishilar uchun kasbdoshlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlik muhitining hukmronligi muhim ahamiyatga ega.

O'z ustida ishlash. O'z imkoniyatlarini kasbiy hayotda yuzaga chiqarish, kasbiy mahoratini tobora oshirish kabi intilishlarda o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z kasbiy qobiliyatlari va ularni rivojlantirish imkoniyatlari haqida ko'proq ma'lumot olishga qiziquvchan bo'ladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. O'z kasbiy faoliyatlarida aniq va sezilarli natijalarga, yutuqlarga ega bo'lishga intilish va ko'p hollarda o'ziga ortiqcha baho beri hislati. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishiga o'zi bajargan ish jarayonida emas, balki uning natijasidan qoniqishga moyillik xos fazilatlardandir. Shu bilan birga bunday kishilarga o'z ishlarining oqibatini aniq rejalatirish ham xarakterlidir.

Ma'naviy qoniqish. Kishining kasb-kori, faoliyatini ma'naviy qoniqish olib kelishiga qaratishi, qiziqarli, mazmunli ish yoki kasb egasi bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z mehnatini mazmunan chuqur anglashga intilib, o'zlari bajargan ishning natijasidan emas, balki ko'proq ishning borishi, jarayonidan zavq oladilar. Bunday odamlarga o'zlari qilgan ishdan xavotirlanmaslik, uning sifatli bajarilganiga ishonch bilan, ma'lum ma'noda mag'rurlik bilan munosabatda bo'lish xosdir.

O'zlikni saqlash. Mehnat faoliyatida o'ziga xos usuldan foydalanib, boqalardan qanday bo'lmasin farq qilishga intilishlaridan o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'zlariga xosligini, betakrorligini chertib ko'rsati uchun noan'anaviy, noyob va nodir mo'taxassisliklarni tanlashga moyil bo'ladilar.

O'quv ta'lim sohasi: Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishining jamiyatda yuqori baholangan ma'lumot darajasiga ega bo'lishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'zlarining yoki o'zlari erishmoqchi bo'lgan ma'lumotlilik darajasi bilan boshqalardan ajralib turish, shaxsiy mavqiyalarini o'z ustlarid yanada ko'proq ishlash, keng qamrovli bilimdonlik evaziga ko'tarish payida bo'ladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Yuqori maosh yoki boqa moddiy daromad keltiradigan ma'lumotga ega bo'lishga intilishda o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishi o'z moddiy imkoniyatlarini ko'tarishda bajarib turgan kasb-koridan qanoatlanmasa, yanada yuqori saviyadagi ma'lumotga erishish istagi bilan xarakterlanadi.

Ijodkorlik. Kishining o'rganayotgan bilim sohasida biror bir yangi narsa topishga, shu sohada o'zining hissasini qo'shishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishi o'zi o'rganayotgan bilim sohasiga biror bir yangilik kiritish maqsadida uni chuqurroq o'rganishga, yangi-yangi qirralarini o'zlashtirishga moyil bo'ladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining muayyan bir ijtimoiy guruh bilan uyg'unlashishga, u bilan hamnafas bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar biror bir ijtimoiy guruhga taalluqli insonlar bilan qalin munosabatlarda bo'lish uchun o'z ma'lumotlarini muayyan saviyaga yetkazishga intiladilar.

O'z ustida ishlash. Kishining o'z qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bilim olishga, yangi-yangi kasbiy yoki bilim sohalarini o'zlashtirishga, ma'lumotini oshirishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'zlarining o'qiy olish, o'rgana olish qobiliyatlari va shu bilan o'zlarini rivojlantiri imkoniyatlari bilan ajralib turadilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Ta'lim jarayonida kishining muayyan natijalarga erishishga (o'qishga kirish, dissertasiya yoqlash, moddiy kamolotga yetishish) yoki boqa hayotiy maqsadlarga erishishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ta'lim jarayonining har bir bosqichini obdon rejalashtirish, oqibatini o'ylash, har bir bosqichda aniq maqsadlarni o'z oldilariga qo'yish hislati bilan ajralib turadilar. Shu bilan birga o'zlariga yuqori baho berishga moyil bo'ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining ma'lum bir bilim sohasini chuqurroq o'rganishga, ayniqsa, uning mazmuniga qiziqishida ifodalanadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar bilim olisha kuchli ehtiyoj sezadilar, o'z ma'lumot saviyalarini oshiriga, tegishli bilim sohasini chuqurroq egallashga intiladilar va shundan qoniqi oladilar.

O'zlikni saqlash. Kishining ta'lim olishda o'ziga xos, o'z shaxsiy hislatlariga mos tamoyillarga rioya qilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ta'lim olishda o'z yo'nalishlariga ega bo'lib, boshqalardan nima bilandir farq qilish, o'z hayotiy prinsiplariga shaksiz amal qilish istagi bilan ajralib turadilar.

Oilaviy hayot: Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishilar nazariga tushadigan oilaviy hayot kechirishga intilish. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ko'pincha, o'z oilaviy hayot tarzlari haqida boshqa kishilarning qanday fikrda ekanligini bilishga qiziquvchan bo'ladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. O'z oilasining moddiy ta'minotini mumkin qadar oshirishga intilish hislati. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odatda oilaning baxti, mustahkamligi, birinchi galda uning moddiy ta'minotiga bog'liq deb hisoblaydilar.

Ijodkorlik. Kishining o'z oilaviy hayotiga qandaydir o'zgarishlar, yangiliklar kiritishga doir intilishlarda o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan doimiy ravishda o'z oilasidagi hayotni rang-barang qilishga intilishi bilan ajralib turadi (masalan, uy-jihozlarining o'rinlarini

yangilab turish, oilaviy dam olishning yangicha, noan'anaviy usullarini o'ylab topish va h.)

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlariga ahamiyat berishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z oila a'zolarining muayyan ijtimoiy vazifani bajarishlariga ahamiyat berishlari bilan ajralib turadilar.

O'z ustida ishlash. Kishining turli xarakter hislatlarining oilaviy hayot jarayonida ijobiy tomonga o'zgartirib borishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z shaxslarining xarakter hislatlari, qobiliyatlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadilar, oila talablaridan kelib chiqib u yoki bu faoliyat turlarini bajarishga tayyordirlar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Kishining oilaviy hayotda aniq natijalarga erishishga (masalan, o'z farzandlariga tezroq o'qish-yozishni o'rgatish, yangi uy-joy qurish, yanada mukammalroq oilaviy hayot sharoitini yaratishga) intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ko'pincha, boshqa kishilarning oilaviy hayotlari haqida ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadilar, boshqalarning oilaviy hayotda erishgan yutuqlariga nisbatan o'z oilalarida erishgan yutuqlarning qanchalik muhimligini bilishga intiladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining barcha oila a'zolari bilan ruhan yaqin bo'lishga, ularni tushunishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar oilaviy hayotda chin sevgini, oilaviy tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hurmatni juda qadrlaydilar va bo'larni oila baxtining eng muhim sharti deb hisoblaydilar.

O'zlikni saqlash. Kishining shaxsiy qarashlari, istaklari, g'oyalariga tayangan holda o'z turmush tarzini yaratishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ko'pincha, shaxsiy o'ziga xosligini namoyon qilib hatto o'z oilalaridan ham mustaqil bo'lishga, (masalan ta'tilni yakka holda o'tkazishga va h.) intiladilar.

Ijtimoiy hayot sohasi:Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishining siyosiy-ijtimoiy hayotida keng tarqalgan qarashlarga rioya qilishga ularni qabo'l qilishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ijtimoiy-siyosiy mavzularda faol itirok etishlari mumkin. Lekin ular odatda o'z fikrlarini emas balki ko'pchilik qadrlagan, e'tiqod qilgan shaxslarning g'oyalarini ilgari suradilar. Shu bilan o'zlarini yuqori toifadagi shaxslarga tenglashtirishga, o'shalar doirasidagi kishilarga intilgan bo'ladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Kishining biror bir moddiy rag'batlantirish evaziga ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar

moddiy manfaatdorlik, foyda olish mumkin bo'lgan ijtimoiy faoliyat turi tashkilotchilik, rahbarlik bilan shug'ullanishga intiladilar.

Ijodkorlik. Kishining o'z ijtimoiy faoliyat sohasini yoki tarzini o'zgartirib, yangilab turishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odatda, ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarishlarga hozirjavoblik bilan yondashadilar. Ijtimoiy faoliyatda eskicha uslublardan voz kechishda, yangi-yangi yo'nalishlarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining muloqotga yo'nalganligini faol ijtimoiy hayot orqali namoyon qilishga intilishida o'z aksini topadi bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar muayyan ijtimoiy guruh vakillari bilan yaqin munosabatlar o'rnatishga, hamkorlik qilishga, targ'ibot ishlariga yordam beradigan ijtimoiy mavqiyega ega bo'lishga intiladilar.

O'z ustida ishlash. Kishining ijtimoiy hayot sohasidagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ijtimoiy hayot sohasidagi qobiliyatlari (muloqotchanlik, tashkilotchilik va h.) hamda ularni rivojlantirish yo'llari to'g'risida ko'proq ma'lumot olishga qiziqishlari bilan ajralib turadilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Kishining ijtimoiy-siyosiy hayotda aniq natijalarga yutuqlarga erishishga intilishida o'z aksini topadi, lekin bu yo'nalish ko'pincha o'ziga yuqori baho berish, o'z qadrini oshirish kabi istaklar bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan odatda, o'z ijtimoiy faoliyatlarini aniq rejalashtiradilar, har bir bosqichda alohida-alohida maqsadlar qo'yadilar va ularga qanday bo'lmasin erishishga intiladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining jamiyat hayotini chin ko'ngildan baxtiyor va go'zal qilish istagida ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odamlar bilan bog'liq faoliyatlari natijalaridan emas, balki ko'proq bu faoliyat jarayonidan zavq olishlari bilan ajralib turadilar.

O'zlikni saqlash. Kishining har xil ijtimoiy-siyosiy qarashlari ta'siriga berilmaslikka intilishida ifodalanadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar juda kam uchraydigan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni qadrlaydilar, ko'pincha esa bunday sinaluvchilar o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ega bo'ladilar.

Qiziqishlar olami: Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishining bo'sh vaqtlarida o'zi sevgan mashg'ulotlari bilan band bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishi bo'sh vaqtini o'zi qadrlagan, unga namuna bo'ladigan shaxslarning fikr va g'oyalariga mos mashg'ulotlar ustida o'tkazadi yoki ular mashg'ul bo'lgan ishlarga taqlid qilib

o'tkazadi, ular mashg'ul bo'lgan ishlarga taqlid qilib, o'zini rivojlantiradi, malakasini oshiradi.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Kishining bo'sh vaqtlarida moddiy foyda keltiradigan hamda shaxs uchun qiziq mashg'ulotlar bilan band bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar bo'sh vaqtda sof amaliy ahamiyatga ega bo'lgan (masalan parrandachilik, kaptarbozlik kabi qiziqish mahsulotlarini sotish, ayirboshlash mumkin bo'lgan) ishlar bilan band bo'ladilar.

Ijodkorlik. Kishining o'z qiziqish sohasiga ijodiylik namunalari, yangiliklar kiritishga keng imkoniyatlar ochadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar doimo o'zlari qiziqqan sohaga ijodiy yondashib, biron bir o'zgarish, yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining odamlarga yo'nalganlik hislatini o'z qiziqishlari vositasida yuzaga chiqarishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar jamoatchilik asosida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga, o'zlariga hamfikir insonlarni izlashga va ular bilan hamkorlik qilishga moyil bo'ladilar.

O'z ustida ishlash. Kishining o'z qobiliyatlari va imkoniyatlaridan mumkin qadar samarali foydalanishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar turli sohalarni o'zlashtirish, har xil mashg'ulotlarda o'z kuchlarin sinab ko'rishga harakat qiladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Kishining o'z qiziqishlari doirasida aniq maqsadlarni ko'zlab, ularga erishishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z qiziqishlari sohasida real natijalarga erishish, erishgan yutuqlarining muhimlik darajasini his etish va shundan rag'batlanib yangi marralarni belgilashga moyil bo'ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining bo'sh vaqtlarida biror bir sevgan mashg'uloti bilan chin ko'ngildan, berilib shug'ullanishga, uning mazmunini chuqurroq anglashga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odatda o'zlari bajargan ishlarning natijasidan emas balki ko'proq mashg'ulotning o'zidan jarayonidan zavqlanadilar ruhiy ozuqa oladilar.

O'zlikni saqlash. Kishning shaxsiy hislatlarini chertib ko'rsatadigan sohalari bilan mashg'ul bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar nodir, noan'anaviy mashg'ulotlar bilan intilib, o'ziga xos tafakkur tarzi, kasb-korga bo'lgan qobiliyatlarini tobora chuqurlashtirishga moyil bo'ladilar.

2.3. Natija va tahlillar

Ҳар бир шахснинг фе'l-атвориди, хатти-ҳаракатларида у мансуб бо'лган миллат, ҳалқ, professional тоифа, жамоа ва oilанинг иjobiy yoki salbiy та'siri бо'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat to'zimi va usha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

- makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi psixologik, ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muxit ta'sirlari;
- mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson bolasi tugilib usadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do'st lar muxitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi bosqich ta'sirlargina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki, «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganlaridek, ayniqsa, o'zbekchilikda odamning oilasi, nasli-nasabi, mahallasi, ta'lim olgan bilim dargohiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oklaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini ham kamsitish to'g'ri bo'lmaydi. Umuman, tarixdan ham ma'lumki, kaysi davlat va mamlakatni olmaylik, boskinchilik siyosati yurgizilgan jamiyat odamlarining psixologiyasi mustaqil yurt fuqarolari psixologiyasidan keskin farq qiladi.

Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda har bir fuqaro o'zining erkin mehnati bilan o'zi va o'zgalar manfaati haqida birday qayg'uradi, chunki fidokorona mehnat yoki tinimsiz izlanishsiz na bir шахsning, na jamoaning biri ikki bo'lmaydi.

O'z istiqlol yo'lini tanlagan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ham aynan shu yurt, shu zaminda tugilib, yashab, mehnat qilayotganlar manfaatini ko'zlashini har bir erkin fuqaro tula anglaydi.

Ҳар бир alohida шахs ongi va shuurida shakllangan tuyg'ular, fikrlar va munosabat yaxlit jamiyat, halqning fikri va g'ururiga shaklanganda shunday kudrat kasb etadiki, oqibatda erkin va xur yashash, Vatan tinchligi va har bir oilaning xotirjamligini ta'minlash halqning e'tiqodi bo'lib kolishi lozim. Demak, ko'pchilikning maslak va tilaklari, fikrlashi va munosabatiga aylangan g'oya, tasavvur va bilimlar tizimi halq e'tiqodi deb ataladi.

Ҳалқ e'tiqodi va uning ruhi shunday kudratli ta'sir kuchiga egaki, u har bir sog'lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbi-korning halol bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek halqi ana shunday iloxiy marhamatga sazovor bo'lgan, o'z milliy e'tiqodiga ega millatlardan biridir. Buni biz buyuk insonlar, mo'tafakkirlar timsolida kursak bo'ladi. Chunki halq ruhi va undagi e'tiqodni millatning eng ilg'or vakillari, mo'taffakkirlar ifoda etadi. Ҳалқ e'tiqodi, yukorida e'tirof etilganidek, har bir шахs e'tiqodining yo'nalishini belgilaydi. Atrofdagilar va yaqinlari takdiriga befarq bo'lmagan, ko'pchilik manfaatini o'z manfaatdan ustun bilgan inson bunday e'tiqodga berilgan va undan ta'sirlangan hisoblanadi.

Shunday qilib, bola uchun keng ijtimoiy muxitdagi sog'lom g'oyalardan, halq ruhining qadriyatlaridan tula baxramand bo'lish imkoniyati tug'iladi. Ezgu fikrning ta'sirchanligi. «Yaxshi so'z - qilichdan ham kuchli» degan gap bor. Darhaqiqat, o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutk, bama'ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir kursatadi. Ana shunday fazilatlar soxibini odatda «Bama'ni odam» deb ta'riflashadi. Bunday shaxslar sog'lom mulokot muxitida fazilatlarini o'zgalarga namoyish qila oladi, o'zini erkin tutadi va o'ziga ishonadi.

Mulokot jarayonida fikrga, sog'lom g'oyaga ega bo'lish - masalaning bir jihati. Uning boshqa bir muhim jihati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir. Insoniy munosabatlar sohasida buyuk muòaxassis deb ý'tirof etilgan Deyl Karnegining kuchi va mashxurligi avvalo uning gapirish va o'zgalarni tinglash qobiliyatida namoyon bo'lgan. U bir vaqtning o'zida minglab odamlarga murojaat qila olar va tinglovchilar vaqtning qanday utganini ham sezmas ekan. Demak, nima haqida gapirish emas, u to'g'rida qanday gapirish ham o'ta muhim . Ana shunday ta'sirchan gapirish maxorati va san'ati – ritorika fani bo'lib, u odamdagi notiklik va o'zgalarni o'z qarashlariga ergashtira olish maxoratini nazarda tutadi. Mafkuraviy tarbiya va ta'sir jarayonida ham gapga chechanlik, so'z boyligi va uni auditoriyaga yetkaza olish muhim ahamiyatga ega.

So'z g'oyaviy ta'sir vositasi. Milliy g'oyalarni halq ongiga yetkazishda so'z asosiy ta'sir vositasi bo'lgan va bo'lib qoladi. Shu sababli kadimgi Gresiyada ritorika maktablari tashkil etilgan va voizlar maxsus koidalar va qonunlar asosida omma oldiga chikib so'zlashga urgatilgan. Odamlar ongiga muayyan g'oyaasosan shu yo'l bilan singdirilgan.

XX asrga kelib, ritorikaga oid klassik yondashuv ham kayta kurib chikildi. Amerikaning Yel shaxridagi ritorikaning tajriba maktabi 60-yillarda ko'plab tadqiqodlar utkazib, mafkuraviy va siyosiy targ'ibot va ta'sir uchun so'z va nutkni mutlok samarali deb bo'lmasligini isbot kildi. Chunki ommaning siyosiy qarashlari va ongiga ta'sir ko'rsatishning boshqa mexanzmlari borligi tajribalarda asoslandi. Olimlarning e'tirof etishlaricha, mafkuraviy fikrlar ma'lum bir qarashlar tizimi bo'lib, unda mantik yetakchi urin tutadi. Lekin inson ongi har doim ham mantikka buysunavermaydi. Bu yo'l yoki vosita aniq fanlar sohasiga, umuman ilm-fanga taallukli deb hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, odamni o'zi ishonishni xoxlamagan narsaga ishontirish o'ta mushkul ish ekan. Chunki u o'zining shaxsiy qarashlari, manfaatlariga mos keladigan narsalargagina ishonadi. Ya'ni, ommaga chiroyli ilmiy iboralardan ko'ra, tabiiy, odatiy, kundalik hayotda ishlatiladigan iboralar, so'zlar tizimi tezrok va kuchlirok ta'sir kursatadi. Tajriba utkir siyosatdonlarning xech kachon o'z nutklarida gayritabiiy, ilmiy iboralardan foydalanmasligini kursatadi.

Shunday qilib, tinglovchiga ta'sir etuvchi va uning ishonchini uygotuvchi nutk shunday bo'lishi lozimki, uni tinglaganlar har bir ifoda etilgan so'z ustida kamrok

uylanishi, aksincha, tanish, o'ziga yokimli narsalar xususida gap borayotganini qalban his qilib turishi kerak. Demak, notik yoki voiz nutkida ishlatiladigan, jamiyat va halq manfaatini ifodalovchi ijtimoiy ramzlar - so'zlar, iboralar, shiorlar, narsa yoki hodisalar usha tinglovchi talab-extiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita alokador bo'lgandagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi. Misol uchun, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning halq vakillari bilan uchrashuvlarini eslang. Davlatimiz rahbari o'zining o'ta mas'uliyatli lavozimi va mavkeidan qat'iy nazar, oddiy mehnatkashlar bilan uchrashganda yoki Vatan va yurt takdiriga alokador masalalar yuzasidan intervyular berganda, har bir O'zbekistonlik uchun tushunarli va ravon tilda, aniq jumlar bilan gapiradilarki, uning mazmuni keksa onaxonlardan tortib, talaba-o'quvchilargacha – hammaga birdek tushunarli bo'ladi. Yurtboshimiz chet ellik mexmonlar va davlat delegasiyalarini kabo'l qilganlarida, ya'ni sof rasmiy marosimlarda esa siyosiy terminlar, jumladan shunday okilona foydalanadilarki, Prezident timsolida mexmonlarimiz butun jamiyat va halqning akl-irodasi va intellektual salohiyati to'g'risida aniq tasavvur xosil qiladi. Yurtboshimizning notiklik qobiliyatlari har bir yurtboshimiz uchun xakikiy maktabdir.

Mafkuraviy ta'sirning yana bir muhim xususiyati borki, u ham bo'lsa, muayyan qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik. Chunki oddiy tinglovchi ayrim-alohida fikrlar orqali usha mafkuraviy tizimning tub mohiyatini anglab olishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini uktirish uchun ularning barchasini bir boshdan sanab o'tish shart emas. Ya'ni, ona mexr-muxabbatining nakadar ulkan kuch ekani, bunga alokador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini anglash ham kuchli kechinmalarni uygotishi mumkin.

Ezgu g'oyava e'tiqodni shakllantiruvchi omillar. Inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Shaxs va uning e'tiqodi masalasi muhim muammolardan bo'lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq deb qaraladi. Bu masalaga e'tiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu g'oyava iymon e'tiqod muhim ahamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo'lib kamolga yetadi. Shu ma'noda, shaxs e'tiqodi undagi shunday barkaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g'oyalar aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi.

Shaxsning ma'naviyatini belgilovchi boshqa ko'plab psixologik birliklardan farqli ularok, e'tiqod va dunyoqarash nisbatan barkaror va uygun bo'lib, uni osonlikcha, tez fursatda o'zgartirib bo'lmaydi. Shuning uchun uning tabiatini o'rganish, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatish omillarini aniqlash masalasi bilan bevosita bog'lq dir.

Shaxs kamoloti jarayonida uning turli ziddiyatlarga va zararli e'tiqodlarga berilish xolati ham ko'zatiladi. Masalan, psixologlar etnik ziddiyatlar hamda diniy e'tiqodlar shakllanishi va o'zgarishiga katta e'tibor berib, ushbu jarayonga xos umumiy qonuniyatlarni o'rganganlar. Masalan, mashxur amerikalik psixolog Gordon Ollportning fikrcha, e'tiqod va etnik ziddiyatlar o'ziga xos umumlashgan ustanovkalar bo'lib, agar shaxsda muayyan biror millat vakillariga nisbatan salbiy munosabat yoki ziddiyat mavjud bo'lsa, demak, unda boshqa bir millat vakillariga nisbatan ham xuddi shunday munosabatni ko'tish mumkin.

Shaxs e'tiqodiga alokador bo'lgan shunday ziddiyatlardan biri diniy bo'lib, uni xakikiy takvodorlik yoki xakikiy e'tiqoddan farqlash zarur. Shu nuqtai nazardan olib karaganda shaxsdagi tashki va ichki diniy e'tiqodni yoki dinga moyillikni farqlaydilar. Shaxs e'tiqodi uning jamiyatdagi xulqini belgilovchi omil bo'lgani uchun ham uni shakllantirishga eng avvalo jamiyat va jamoatchilik, oila va barcha turdagi ta'lim muassasalari jalb etiladi.

Biz e'tiqodni shakllantiruvchi har bir omilning ta'sir kuchi nimalarga bog'liq ligini bilishimiz kerak. Bylar kuyidagilardir:

- a) ta'sir kursatuvchi manba-shaxs yoki guruh, boshqacha qilib aytganda, kommunikator;
- b) ta'sir mazmuni yoki ma'lumot;
- v) ta'sir vositasi yoki ma'lumot yetkazuvchi tarmok;
- g) ta'sirni kabo'l kiluvchi yoki auditoriya.

Ta'sir kursatuvchi shaxs – ta'lim beruvchi. Ta'sir kursatuvchi shaxsdan nimalar talab kilinadi? Avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobiliyati, uning nutki, o'ziga ishonchi va boshqalar. Mafkurachilarning asosiy ish uslubi, metodlariga o'zida mavjud bilim, tushuncha, g'oyalarni asos qilib olgan holda, birinchi navbatda O'quvchilarda, qolaversa, keng halq ommasida ongida mustahkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatish va taklid etishga chorlashdir. Bunda u mulokotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, baxs-munozara, breynshtorming kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faliyat har bir ta'sir kursatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutk maxoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi o'z nutkida nutkiy va nutkiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofik tarzda foydalana olishi shart. Agar voiz yoki notik o'ziga berilgan minbarda faqat so'z va iboralar tizimidan foydalanish bilan cheklansa yoki kogozga tushirilgan matndan chetga chikolmasa, uni auditoriya tinglamaydi, unga ishonmaydi. Shuning uchun hissiy ta'sir usullari – urinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika va patomimika kabilar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmash kerak.

Tarbiyachidan talab kilinadigan yana bir muhim hislat - gapirayotgan kishining yokimtoyligidir. Bu ham notikka nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida, voizning murojaatiga e'tibor jiddiyrok bo'ladi. Ziyoli, olimlar

auditoriyada, mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikr va muloxazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Axborotning mazmuni. Notikning nima haqida gapirayotgani ham mafkuraviy tarbiyada muhim urin tutadi. Tadqiqodlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga ham aqlan asoslangan – (rasional), ham emosional (hissiyot uygotuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, ukimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotni tez kabo'l qilib, unga ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastrok shaxslar ko'prok yurakka yaqin, emosional ma'lumotga uch bo'ladi. Bundaylar xattoki ulardagi ayrim negativ his-tuyg'ularni ko'zgatuvchi ma'lumotlarga nisbatan ham faolrok bo'ladi. Shuning uchun ham kasallikka qarshi yoki zararli odatlarga qarshi qaratilgan reklamada ko'pincha daxshat uygotuvchi rasmlar beriladi. Yoki fikrni o'zgartirish uchun berilayotgan ma'lumot tinglovchida mavjud bo'lgan bilimlardan keskin farq kilsa ham unda yangi ma'lumotga nisbatan ishonch va uni kabo'l qilish ga moyillik kuchli bo'ladi. Mafkuraviy axborot yozma yoki ogzaki tarzda yetkazilishi mumkin. Agar birinchisiga gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujaassamlashgan ma'lumotlar kirsas, ikkinchisiga ma'ruza ukish, darsni bayon etish, munozara va suxbatlar utkazish kiradi. Bundan tashkari, mafkuraviy g'oyalari turli badiiy va xujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali ham yetkazilishi mumkin. Muhim i, ular halq ma'naviyati, ulmas merosimiz, kelajakka ishonch uygotuvchi ma'no-mazmun bilan yug'rilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligini ularning ommabopligi, bildirilgan yoki ifoda yetilgan g'oyalarning sodda, ixcham va ravon bayon kilinishiga ko'p narsa bog'lq . Tinglovchi har bir so'zni tushunsagina, unda teran munosabat shakllanadi.

Bundan tashkari, birlamchilik va ikkilamchilik samarasi qonuniyati ham bor. Uning mohiyati shundan iboratki, dastlab kabo'l kilingan ma'lumotning mazmuni odamga kuchlirok ta'sir qiladi. Lekin, ikkinchi tomondan, tinglovchi tomonidan oxirida eslab kolingan ma'lumot ham xotirada mustahkam urnashadi. Buni ham mafkuraviy tarbiya jarayonida albatta inobatga olish zarur.

Bolalar bilan milliy g'oyalarimiz xususida olib boriladigan suxbatlarda tarbiyachi yoki murabbiy avvaldan tayyor savollar tartibini ishlab chiqishi, ishlatiladigan tayanch iboralar katta ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir jumla yoki iboraning konkretligi, hayotiyliigi va obrazlilikligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'sir vositasi (aloqa tarmog'i). Tarbiyada yana bir omil – ma'lumotning nima vositasida o'zatilishi masalasi. Albatta, odamlarga yuzma-yuz turib o'z fikr va e'tiqodini bayon etish eng ta'sirchan usuldir.

Shundan kelib chikib, aytish mumkinki, tinglovchi bilan aloka vositali yoki bavo-sita bo'ladi. Yuzma-yuz uchrashuvlardagi mulokot yoki ta'lim-tarbiya jarayonidagi ta'lim beruvchi bilan o'quvchi urtasidagi aloka yoki ota-ona bilan

farzandlar urtasidagi munosabatlar bevosita alokaga misol bo'lsa, ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, televideniye, radio, gazeta va jurnallar, kitob yoki risolalar vositasidagi mulokot bevosita alokani bildiradi.

Ijtimoiy reklama ham, inson ongi va idrokiga ta'sir kursatuvchi kuchli vosita ularok, g'oyaviy tarbiyada katta urin tutadi. Masalan, taniqli va baobru shaxslarning madaniy va ma'naviy merosimiz, obidalarimiz oldida turib intervyu berishlari juda samarali bo'ladi. Misol uchun, Samarkanddagi Registon maydonida intervyu berayotgan shaxs shahardagi obodonchilik ishlari haqida gapirayotgan bo'lsa ham, asriy obidalar tomoshabinda milliy madaniyatimizga xurmat, undan g'ururlanish tuyg'ularini usha mukaddas qadamjolarini borib ziyorat qilish istagini uygotadi.

Auditoriya, ya'ni tinglovchilar xususida gap ketganda, qanday insonlar ishonuvchan bo'ladi, qanday odamlar sog'lom g'oyalarni yot, buzg'unchi g'oyalardan farqlay oladi, degan savol o'ta muhim dir. Chunki odamlar har xil. Masalan, ular birgina sifatleri - o'z-o'zlariga bo'lgan baxolari nuktai nazaridan farq qiladi. Masalan, o'zi, o'z qobiliyat va fazilatleri xususida kamtarona fikr yuritadigan odamlarning yangi ma'lumotlarga, notanish manbalarga ishonish, e'tiqod xosil qilish juda sekin sodir bo'ladi, ular o'zlariga qanchalik ishonmasa, boshqalarga ham ishonmaydi. O'zi haqida ancha yukori fikrlar bilan yuradiganlar esa ma'lumotlarni tez kabo'l qiladi, lekin o'zlaridagi mavjud fikrlarga nisbatan ham kibor, g'urur bo'lgani sababli, boshqalarning fikriga tezgina ergashmaydi. Demak, xulosa shundayki, insonning o'ziga bo'lgan baxosi me'yorida, urtacha hamda xolis bo'lishi kerak.

Mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini baxolash mezonleri. Bu - o'ta noziq va mas'uliyatli ish. Agar bunday ish 15 kishigacha bo'lgan kichik auditoriyalarda amalga oshirilgan bo'lsa, unda tinglovchi - yoshlar, tarbiyalanuvchilar yoki talaba-o'quvchilarning dunyoqarashlarini bevosita suxbatlar, yozma ishlar va ularning ishga, voqyea-hodisalarga bo'lgan munosabatlari orqali aniqlab, mashg'ulotlarni kayta-kayta utkazish mumkin.

Agar auditoriya 15 kishidan 100 kishigacha bo'lgan urtacha kattalikda bo'lsa, unda odatda tadbir yoki turli mavzulardagi yigilishlarda jam bo'ladigan odamlar guruhi nazarda tutiladi, uning samarasini bir martada aniqlash mushkul bo'ladi. Chunki psixologiyada shunday qonuniyat borki, auditoriyani tashkil etuvchi odamlar soni ortib borgani sari uni tashkil etuvchilar bir-biriga juda uxshab boradi. Shuning uchun 100 va undan ortik, 200, 300 kishilik auditoriyani to'plab utkazilgan ma'naviy va mafkuraviy tadbirlar samaradorligini oshirishda juda ko'p omillar hisobga olinishi kerak. Bunday sharoitda baxs yuritish, fikr almashish yoki odamlarning yetkazilayotgan ma'lumotni kay darajada o'zlashtirayotgani bo'yicha monitoring olib borish ancha murakkab bo'ladi. Bunday paytlarda yangilikka o'ta uch tinglovchi ham voizga nisbatan neytral mavkeni egallashi, uning fikrlariga to'liq ergashmasligi mumkin. Chunki bu

yerda g'oyalarga ayrim alohida shaxslar emas, guruhlar ergashadi. Agar muayyan guruh axborotni kabo'l qilish ga umuman moyil bo'lsa, unda tinglash qobiliyati bo'ladi, aksincha, xech kim xech narsani tushunmaganday utiraveradi. Mabodo tinglovchilar orasida savol beruvchilar paydo bo'lsa, bu savol ko'pchilikka ma'kul bo'lmasligi yoki ayrimlarga yokishi mumkin, bunday vaziyatda topkirlik va zukkolik qilib, barchaga ma'kul keladigan gaplarni topa olishi lozim.

Shuning uchun Vatan va yurt takdiriga alokador muhim mavzulardagi uchrashuv va ma'ruzalar imkon kadar torrok davralarda, tugarak stollar atrofida amalga oshirilsa samarali bo'lishi psixologiyada va ijtimoiy ta'sir amaliyotida isbot kilingan.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini ulchash mezonlari quyidagilardan iborat:

- axolining siyosiy bidimdonligi, ijtimoiy faolligi;
- jamiyatning ma'naviy sog'lomligi, odamlarning o'zini ruhan tetik va bardam to'tishi;
- vatanparvarlikning turli kurinishlari kundalik turmushda tobora ko'prok namoyon bo'lib borayotgani;
- axolida ma'lumotlilikdan manfaatdorlik kayfiyatining borligi, barchada bilim saviyasini oshirishga intilishning kuchayishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuot, nashriy ishlarga talab va taklifning ortib borishi;
- jinoyatchilik va xukukbo'zarlik xolatlarining yil sayin kamayib borishi, ayollar va o'smirlar urtasida sodir etiladigan jinoyatchilikning bartaraf etilishi;
- giyoxvandlilik va turli zararli odatlarning yoshlar urtasida yil sayin kamayib borishi, bunda keng jamoatchilikning faol ishtiroki;
- diniy, dunyoviy bilimlarga mukobil munosabat, shu sohalardagi adabiyotlarga nisbatan extiyojning bir maromda saklanishi;
- oilalarning mustahkamligi, ajrimlarning kamayib borishi;
- fuqarolarda qonunlarga nisbatan itoatkorlikning shakllanishi;

butun jamiyat mikyosida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy muxitning shakllanishi.

Mafkuraviy ishlar amaliyotida, jamiyatdagi ma'naviy barkarorlikni ta'minlash uchun, ijtimoiy fikrni muttasil urganib borish, bunga jamoatchilikning eng ilg'or vakillarini jalb etish maqsadga muvofik. Ijtimoiy fikrni o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

1. Sosiologiya va psixologiyaning maxsus usullarini kullagan tarzda, mo'taxasislar ishtirokida amalga oshiriladigan tadbirlar. Bunda asosan surov usullari - anketa yoki intervyu yo'li bilan jamoatchilik fikri urganiladi. Anketa yozma surov shakli bo'lib, unga kiritilgan savollar yordamida milliy g'oyaning mazmuniga alokador masalalarning yoshlar tomonidan kay darajada o'zlashtirilganini aniqlash mumkin. Anketa savollari tinglovchilar ongidagi

bilimlar kay darajada mustahkam ekani haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Umuman, milliy g'oyalarning inson ongidagi monitoringini aniqlashda, ma'lumotlilik darajasiga ko'ra, ochik savollar bilan yozma fikrlarni tuplash, intervyu yo'li bilan xilma-xil fikrlarni o'rganish samaralirok hisoblanadi.

2. Joylarda, mahalla kumitalari, o'quv maskanlarida «Ishonch pochtalari» tashkil etish ham mumkin. Bunda axolining xat, xabarlarini orqali ro'y berayotgan jarayonlarga, mafkuraviy o'zgarishlarga, mahalla-kuy, turar-joylar va mehnat jamoalaridagi ayrim salbiy hodisalarga munosabati aniqlanadi, halqning islohotlardan manfaatdorligi urganiladi.

3. Xujjatlar, yozma manbalar va xatlarning mazmuni, televideniye, radio va vaqtli matbuot saxifalarida mehnatkashlarning fikr-uylarining bayonini ham sifat, ham mikdor jihatdan tahlil qilish orqali ularning milliy g'oyalar mohiyatini kay darajada tushunayotgani, ularga munosabati, bu jarayondagi ishtirokini o'rganish mumkin. Bu ham Jahon tajribasida sinalgan ishonchli usullardan biri.

Shunday qilib, milliy istiqlol g'oyasining halqimiz qalbi va ongiga singdirish jarayoni murakkab, ko'pbosqichli va o'ta mas'uliyatli bo'lib, ular samaradorligini muttasil urganib borish, yanada mahsuldor va ta'sirchan tarbiyaviy usullarni amaliyotda kullash, takomillashtirib borish ushbu yo'nalishdagi ishlarning tarkibiy qismidir.

Milliy istiqlol g'oyasini yoshlarning ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlari.

Xar bir davrning o'ziga xos tarbiyaviy usul va vositalari bo'ladi. Kadim zamonlardan tarbiya yosh avlodning keksa avlod tajribalarini o'zlashtirish shakllaridan biri sifatida karab kelingan. Tarbiya asosan mehnat faoliyati (ovchilik, chorvachilik, dexkonchilik va shu kabi) jarayonida, turli urf-odatlar, marosimlar utkazish vaqtida amalga oshirilgan. U asosan jismonan baquvvat bo'lishga qaratilgan. Psixolog D. Elkonin bolalar uyini tarixini tahlil qilib, taraqqiyotning ma'lum davriga kadam umuman bolalar uyini kategoriyasining o'zi bo'lmaganini isbot qilgan. Lekin usha paytlarda kattalarning bolalarga ta'siri bevosita bo'lib, tarbiya jarayoni xozirgidan farqli sharoitlarda kechgan. Mehnat faoliyatining ko'pkirrali bo'lgani va murakkablashib borishi bois kattalar bilan bolalar urtasidagi munosabatlarda ro'y bergan o'zgarishlar tufayli o'ziga xos bolalar jamiyati paydo bo'lgan va bu jamiyat a'zolari kattalar tajribasini o'zlashtirishning turli-tuman yo'llarini topib, o'z hayoti va faoliyatini takomillashtirib borgan. Bu birinchi navbatda kasb-xunar turlarining ko'payishi va takomillashtirib borishi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Bola istagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya olib, o'zi xoxlagan ixtisoslikni egallashga xakli. Lekin uning xoxish bilan jismoniy imkoniyati har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Odatda, ota kasbini, to'g'rirogini, bobo meros kasbni tutgan yoshlar hayotda ko'prok muvaffakiyat kozonadi. Chunki bolada otaning

koni, uning layokati bo'ladi. Demak, kasb tarbiyasi, bolani yoshlikdan el-yurtga foydasi tegadigan mehnat faoliyatiga yunaltirish ham mafkuraviy ahamiyatga egadir.

G'oyaviy tarbiyaning mohiyati. Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi - bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu - inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, xuquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Xar qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasinimi, mahalla, maktab, kollej, lisey, universitet yoki akademiyani olamizmi - hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yunaltirilgan bo'ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu - tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, halq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Nima uchun bir jamiyat, ijtimoiy guruh (masalan, siyosiy partiya, ijtimoiy harakat) mafkurasini boshqa bir ijtimoiy guruhga majburan singdirish noto'g'ri. Chunki mafkura - muayyan ijtimoiy guruh a'zolariga xos o'zlaridagi mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu, umidlar hamda manfaatlar asosida o'sha guruhning qarashlari, tasavvurlari dunyosi hamda g'oyalarining mahsuli sifatida yaratiladi. Unda boshqalar manfaatlari ifodalanmasligi ham mumkin. Bas, shunday ekan, o'zgalar manfaatini ko'zlovchi mafkurani halq ongiga zo'rlab singdirib bo'lmaydi. Masalan, amerikaliklarning o'z mafkuraviy qarashlari bor, bu qarashlar tizimi har bir amerikalikni yurti bilan faxrlanish, uning kelajagi uchun qayg'urish, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilishga undashi tabiiy. Lekin bu qarashlarga suyangan va ularni chuqur tahlil qilib o'rgangan holda biz ham faqat shunday kilsak bo'lar ekan, biz ham shu faqat yo'ldan boraylik, deb bo'lmaydi. Chunki har bir jamiyat rivojining o'ziga xos qonuniyatlari mavjudki, usha jamiyat a'zolari ularni o'zlarining tub maqsad va manfaatlari asosida shakllantiradi.

Xar qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi - jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada usha jamiyat rivojiga to'rtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, halqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom g'oyalar va fikrlar tarzida - halq tafakkuri

tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir.

Xo'sh, mafkuraviy tarbiyaviylik eng avvalo yuksak e'tiqod, iymon, Vatan va halq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saklagan holda munosib urin egallashga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash o'quvchilarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muxabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, saykal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.

Yoshlik, o'spirinlik davri dunyoqarashning shakllanishi, e'tiqodning mustahkamlanishi uchun o'ta sezgir, psixologiya tili bilan aytganda, «senzitiv» bosqich hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu davr nafaqat shakllanish uchun, balki, agar ma'lum bir qarashlar tizimi mavjud bo'lsa, ularni o'zgartirish uchun ham qulaydir. Shu bois mafkuraviy ta'sirlar bevosita yoshlar auditoriyasiga, ularning qalbi va ongiga qaratilgan bo'ladi.

Mas'uliyat. G'oyaviy tarbiya mezonlaridan biri bu mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Mas'uliyat odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson ishni doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va saloxiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi.

Shaxsiy mas'uliyatni fuqarolik mas'uliyatidan farqlash lozim. Birinchisi - shaxsning kundalik faoliyatidan keladigan shaxsiy manfaatni nazarda tutsa, ikkinchisi jamiyat manfaatlarini nazarda tutadi. Fuqarolik mas'uliyatini his etgan inson eng avvalo o'zi mehnat qilayotgan jamoa yoki ta'lim olayotgan o'quv dargohi, o'z mahallasi va yurti ravnaqini o'ylaydi. Mustaqil O'zbekiston fuqarolari uchun yagona maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va halq farovonligi uchun xizmat qilish bo'lsa, demak, har bir fuqarolik mas'uliyatining ma'no-mazmunini ana shu g'oyalarni amalga oshirishda deb bilishi darkor.

Oxirgi yillarda g'arbda keng tarqalgan bir nazariyaga ko'ra, odamlar mas'uliyat nuqtai nazaridan ikki toifaga bo'linadi. Birinchi guruh o'z hayotida ro'y berayotgan voqeya va hodisalarning sababchisi, mas'uli deb faqat o'zlarini tasavvur qiladi. («Men o'zim barcha narsalarga mas'ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'lq, shuning uchun o'zim uchun ham, oilam uchun

ham o'zimg javob beraman»). Ikkinchi guruh barcha voqeya, hodisalarning sababchisi tashki omillar, boshqa odamlar - ota-ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar, qo'ni-qo'shni va boshqalar deb hisoblaydi.

Tadqiqodlarning ko'rsatishicha, ikkinchi shakldagi mas'uliyat ko'prok o'smirlarga xos ekan, ularning deyarli 84 foizini mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekan. Amerikalik olim Dj. Rotter ana shu asosda «nazorat lokusi» tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Uning kiritgan fikricha, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgangan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, asabiylashuv, jaholat kabi salbiy sifatlar kam uchrar ekan. Ular har kimning fikriga ergashib ketavermasdan ko'p narsani o'z qarashlari asosida hal etar ekan. Demak, mas'uliyatni his qilgan bolalar hayotga tayyor, faol, erkin va mustaqil fikrlovchi bo'ladi. Ularda mas'uliyat bilan birga, o'z-o'zini anglash, shaxsiy g'urur tuyg'ulari ham yuksak bo'ladi. Shuning uchun ham mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida O'quvchilarda ona Vatan oldidagi burch, o'z takdiri uchun mas'uliyat, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

E'tiqod - psixologik hamda ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'limot nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emosional-hissiy kabo'l qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuidir. Yoki boshqacha aytganda, e'tiqod ma'lum qadriyatlar, diniy yoki dunyoviy maslaklar, munosabatlarning inson qalbida yashash falsafasi, faoliyat dasturi sifatida kabo'l kilinishidir. Agar shu jarayonning oqibati ularok odamda diniy yoki dunyoviy maslak, ishonch kabi turgun munosabatlar shakllangan bo'lsa, biz uni e'tiqodli odam deb ataymiz. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi urni va nufo'zi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladi. Masalan, Fransiyalik mashxur sayyox Kusto va uning komandasi haqidagi filmni hamma kurgan. Bir qarashda u butun umrini dengiz hayoti va undagi sirli voqyealar, xayvonot dunyosini kashf etishga bagishlagandek tuyuladi. Dengizdan juda uzok da yashaydigan, undan manfaat kurmaydigan odamlar uchun bu tadqiqodchining hayoti va ishlari keraksiz bir narsadek tuyuladi. Lekin bu olimning o'z ishiga sadoqati, e'tiqodi shu darajada kuchliki, uni butun dunyo, sog'lom fikrlovchi har bir inson juda yuksak kadrlaydi. Bu kabi odamlarning boshqa sohalardagi xizmati kam bo'lishi mumkin, ammo bashariyat uni yuksak e'tiqodi uchun xurmat qiladi. Demak, e'tiqodsizlikdan kurkish kerak, agar xech narsaga ishonmaydigan, maqsad-maslagi noma'lum kishini kursangiz, unga yordam berish lozim, chunki bu odamdagi e'tiqodsizlik nafaqat uning o'ziga, balki atrofdagilarga ham ziyon keltiradi. E'tiqodli odam avvalo foydali ish bilan shugullanadi, o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallar kilmaydi, yolgon gapirmaydi. U har doimo lafziga amal qiladi, ya'ni bir narsani qilaman, deb axd etsa, butun kuchi va iktidorini safarbar

qilib, uni albatta bajaradi, boshlagan ishni oxiriga yetkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi biladi. Shu bois xakikiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad kuyib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka xavas uning hayotiy shioriga aylanadi. Xakikiy e'tiqod soxibi o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqod, shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylilik, iroda, vijdon, kat'iyat, halollik, insonparvarlik, vatanpravarlik kabi fazilatlar bilan bog'lq dir.

Oilaga psixologik yordam ko'rsatish shaxobchalarining tashkil etilishi ham oilalarda ro'y beradigan turli muammolarning yechimini ijtimoiy uslublar vositasida hal qilish imkonini beradi. Ularning asosiy vazifalaridan biri otanalar va farzandlar uchun Milliy ong va milliy mafkuraruhidagi tadbirlar va maslaxatlar majmuini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek halqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustivor yo'nalishlaridandir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini kamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan okilona foydalanish taqozo etiladi. Ta'lim va tarbiya sohaları milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustivor yo'nalishlaridandir. Bunda kuyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarining yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishda differensial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oyava milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini o'zluksiz tarzda olib borish;
- o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettirish;
- va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettirish;
- maktab, lisey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
- pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Ta'lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o'z navbatida milliy g'oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, lisey, kasb-xunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy uchoklaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha o'quv

qo'llanmalari va darsliklar, kushimcha adabiyotlarda kuyidagi omillar ustivor ahamiyat kasb etishi lozim:

Vatan tuyg'usini shakllantirish:

- ona tilimizga muxabbat uygotish;
- milliy qadriyatlarga xurmatni kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
- mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish;
- umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uktirish;
- totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uktirish;
- dinning dunyoviylik bilan karama-qarshi emasligini anglatish;
- ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlovchi;
- tarixning, mafkuraning falsafiy asosini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish;
- xuquqiy madaniyat sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish.

Bu ishlar ijtimoiy gumanitar fanlarning ma'no mazmuni va ularni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirishni, yoshlarni mustaqil fikrli bo'lishga, ijobiy o'zgarishlarga befarq bo'lmagan, chuqur bilimlarga intilib yashashga o'rgatishni taqozo etadi.

X U L O S A

Shunday qilib, milliy ong va milliy mafkurani o'rganish orqali o'quvchilar qalbiga milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarni singdirish uchun g'oyaviy chiniqtirishning ayrim ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiqod predmeti sifatida o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi

Zero, o'quvchilarda milliy ong va mafkuraviy immunitetni o'rganish muammosi nafaqat ijtimoiy psixologiya fani taraqqiyoti uchun, balki o'quvchi-yoshlarning o'sib borayotgan ma'naviy extiyojlarini o'rganish va milliy mafkurasiga nisbatan ularda qizikish hamda ijobiy munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga taxdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar domiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar», - deb yozadi Prezidentimiz. Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so'z bilan aytganda, kuchli milliy ongga va mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Mazkur tadqiqod ishimizda mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun aholida milliy ong va mafkuraviy immunitet haqida fik yuritdik. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashqi ta'sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» .Kitob «Barkamol avlod orzusi» T. «Shark» 1997 yil
2. Karimov I.A. «O'zbekiston XX asrga intilmoqda» - T. «O'zbekiston» 1999 yil.
3. «Ta'lim to'g'risidagi qonun». T. «Shark» 1997 yil
4. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» T. «Shark» 1997 yil
5. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» T. «Shark» 1999 yil
6. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi halqni halq, millatni millat qilish ga xizmat etsin» T.O'zbekiston 1998 yil.
7. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” 2008y. Tosh. Ma'naviyat nash.
8. Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida” 2012y. Tosh.
9. Andreyeva G.M.Sosialnaya psixologiya:-Uchebnik.-2-ye izd. -M.:Izdvo MGU,1988.- 432 b.
10. Baratov Sh.R. Sosialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovy sozdaniya psixologicheskoy slujby v O'zbekistane: avtoref. dis. dok. psixol. nauk. Toshkent 1998.-37 s.
11. Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. Toshkent, 1965. - 125 bet
12. Barotov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari -T.:O'kituvchi, 1995.- 56 b.
13. Barotov Sh.R. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baxolash.-T.: O'kituvchi,1992 -48 b.
14. Barotov Sh.R.Boshlangich ta'lim tizimida psixologik xizmat muammosi/ Boshlangich ta'limning dolzarb muammolari.Resp. ilmiy-amal.anjum.ma'ruzalarining tezislari.-Buxoro,-1995.-B.15-21.
15. Vygotskiy L.S. Sobr.soch. T.4., M.: Pedagogika, 1984.
16. Iso'kova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi... diss. avtoref., -T., -1999.
17. Karimova V.M. Yangi turdagi ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarni mustakil fikrlashga o'rgatishning psixologik muammolari//Yangi turdagi o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari.Toshkent, 1 998.-10-13 betlar.
16. Kon I. S. Psixologiya ranney yunosti. M., «Prosvesheniye 1989. 255 s. V.Karimova. Psixologiya.O'quv qo'llanma T.A. Qodir iy nomidagi halq merosi nashriyoti. «UAJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
- 17 Kon I.S. Psixologiya ranney yunosti. – M.1989 god
18. K.K.Platonov Kratkiy slovar sistema psixologicheskix ponyatiy.- M.:Vysshaya shkola, 1984.-179 b.

19. Kratkiy psixologicheskiy slovar //sost. L.A.Karpeyenko;pod. obsh. red. A.V.Petrovskogo ,M.G.Yaroshevskogo .-M:Politizdat -1985-431 b.
20. Kovalev A.G. Psixologiya lichnosti - M. 1969 god.
21. Mamatov M.M. Etnopsixologiyadan maъro'zalar matni. ToshDU. «Universitet» nashriyoti, Toshkent. - 1999. — 54 b.
22. Raxmonov A.G. Kasb-xunar kolleji ishlab chikarish ta'limi ustalarining o'kuvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini o'rganish: Psixologiya fanlari nomzodi Bitiruv malakaviy ishi avtoreferati. Toshkent. 2000. - 24 b.
23. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy taxriri ostida 3-kayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O'kituvchi.1992 - 512 b.
Shoumarov G.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, yechimlar."Ma'rifat"ro'znomasi, 12 oktyabr, 1996 y. -B. 1-2.
24. Shoumarov G.B. Shoumarov Sh.B. Muxabbat va oila. -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-manbaa birlashmasi, 1994-120 b.
25. Shoumarov G.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, yechimlar. "Maъrifat" ro'znomasi 16 oktyabr 1996 y -B. 2-3.
26. Shoumarov G.B. Barotov Sh.R. Respublika halk ta'limi tizimida psixologik xizmat muammolari. Resp. ilm.-amal. anj. maъro'zalarining tezislari. Buxoro 1995 y 12-13 may -B. 78-80.
27. E.G'.G'oziyev. Umumiy psixologiya. 2010y.-Tosh.
28. E.G'.G'oziyev. Ontogenez psixologiya. 2010y.-Tosh.